



# YANGI O'ZBEKISTON

## JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOG'LOM TURMUSH TARZI, MAMLAKAT NUFUZINI NAMOYON ETADIGAN KATTA KUCH

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish, seleksiya va tayyorgarlik tizimini takomillashtirish masalalari yuzasidan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.**

Yig'ilish avvalida davlatimiz rahbari sport nafaqat musobaqa, balki sog'lom turmush tarzi, intizom, vatanparvarlik va mamlakat nufuzini namoyon etadigan katta kuch ekanini ta'kidladi.

Qayd etilganidek, so'nggi to'qqiz yilda 1,5 mingdan ziyod mahallada 1 ming 774 ta zamonaviy sport maydonchasi barpo etildi. Hududlarda 200 dan ortiq yirik sport inshooti, 4 mingga yaqin xususiy sport klubi ish boshladi. Sport bilan professional shug'ullanuvchi yoshlar soni 2 karra oshdi, olimpiya terma jamoalari sportchilari 2 barobar, paralimpiya bo'yicha esa 3 barobar ko'paydi.

Birgina o'tgan yilda sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda 452 ta oltin, 418 ta kumush va 501 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Ularning 50 nafardan ziyodi jahon va Osiyo rekordlarini yangiladi.

Yig'ilishda sohada erishilayotgan yutuqlar bilan birga mavjud muammo va kamchiliklar ham chuqur tahlil qilindi.

Bugun olimpiada sport turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan 26 ta federatsiya rahbarlari va hokimlar joylardagi mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solmagani tanqid qilindi. Xususan, 207 ta oliygoh, 15 ta olimpiya va paralimpiya markazi, 310 ta sport maktabi, 16 ta sport internatining imkoniyatlaridan samarali foydalanilganda, chempion tayyorlash va musobaqalarga litsenziya qo'lga kiritish borasida natijalar yanada yuqori bo'lishi mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Bu borada ijobiy tajribalar ham qayd etildi. Masalan, Zarbdor tumanida o'tgan yili 23 ta mahalladagi 34 ming yosh ommaviy sportga jalb etilgan. Tumanda 3 ta yangi sport zali qurilib, stol tenisi, taekvondo va voleybolga ixtisoslashtirilgan. Tadbirkorlar bilan hamkorlikda 2 ta usti yopiq futbol maydoni va fitness klub tashkil qilingan. Natijada Zarbdor tumani ilk bor voleybol va stol tenisi bo'yicha joriy yilgi O'zbekiston chempionatiga mezbonlik qiladi.

Mutasaddilarga Zarbdor tajribasini o'rganib, uni barcha hududlarda joriy qilish topshirildi.

Ayrim maktablarda to'garaklar faqat nomiga tashkil etilgani, shu bois, ularga 3-4 nafardagina bola qatnashib kelayotgani ko'rsatib o'tildi. Jumladan, o'tgan yili Jizzax, Qashqadaryo va Farg'onadagi maktab o'quvchilarining to'rtidan biri jismoniy tayyorgarlik bo'yicha minimal talabni ham bajara olmagan.

Hokimlar oldiga har bir maktabda sport to'garaklari uchun zarur sharoit yaratish, qamrovni oshirish va bolalarni sportga keng jalb etish vazifasi qo'yildi.

Bugun ayrim ixtisoslashgan sport maktablarining natijasi oddiy sport maktablaridan farq qilmay qolgan. Masalan, Termiz shahridagi 4 ta ixtisoslashgan maktabning natijasi Jarqo'rg'ondagi bitta sport maktabchalik emas. Jarqo'rg'on sport maktabi o'tgan yili Osiyo va jahon chempionatlarida 6 ta sovrin olgan bo'lsa,

viloyatdagi 4 ta ixtisoslashgan maktabda jami 1 ta medal bor, xolos.

Shu munosabat bilan har bir ixtisoslashgan sport maktabi direktori, jamoasi va murabbiylarining ish uslubini o'zgartirish, o'sish nuqtalarini aniq belgilash, ularning oylik maoshini tarbiyalanuvchilar natijasiga bog'lash zarurligi ta'kidlandi.

Qolaversa, yuqori natijaga erishgan sport maktablarini amaldagi rag'batlantirishdan tashqari yana 500 million so'mdan alohida mukofotlash tizimi joriy etiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida sportni rivojlantirish ishlari ham tanqidiy ko'rib chiqildi. Federatsiyalar bilan hamkorlik, iqtidorli talabalarga individual murabbiy birlashtirish ishlari yetarli emasligi qayd etildi. Jizzax politehnika instituti, Toshkent tibbiyot universitetining Termiz filiali, Qarshi davlat texnika universiteti va Buxoro davlat universitetida talabalarining 70 foizi jismoniy normativlarni topshira olmagan. Bu esa mazkur oliygohlarda sport klublari yetarli darajada ishlamayotganini anglatadi.

Shu munosabat bilan 207 ta oliygoh rektorlariga Termiz davlat universitetining bu boradagi ijobiy tajribasini o'rganish, sportni rivojlantirish bo'yicha bir yillik aniq reja ishlab chiqish topshirildi.

Yig'ilishda alohida sport turlari kesimida ham natijalar va muammolar tahlil qilindi. Xususan, o'q otish bazasida zarur sharoitlar yaratilgani tufayli ushbu sport turida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Futbol, sport kurashlari, velosport, yengil atletika va

suzishda ham ijobiy siljishlar borligi e'tirof etildi.

Shu bilan birga, Jizzaxdagi 6 ta qilichbozlik bazasida shug'ullanuvchilar soni 100 nafarga ham yetmasligi, batut va akrobatika bo'yicha salohiyatdan to'liq foydalanilmayotgani, tennis va ot sportida natijalar yetarli emasligi tanqid qilindi.

Bugun sportchilarni jarohatdan tiklash, mushak holatini tekshirish va funksional tahlil qilish ishlari asosan xorijda amalga oshirilayotgani, federatsiyalar sport shifokori, farmakolog va diyetologlarni chetdan jalb qilishga majbur bo'layotgani ta'kidlandi.

Endilikda har bir ixtisoslashgan tibbiyot markazi tegishli sport federatsiyalari bilan hamkorlik qiladi. Ular har oy terma jamoa a'zolarining sog'lig'ini diagnostika qiladi, jarohat olish xavfini baholaydi, jismoniy yuklamani ilmiy tahlil qilib, murabbiylarga tibbiy tavsiyalar beradi.

Davlatimiz rahbari sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qator tashabbuslarni ham ilgari surdi.

Endilikda mahallada ommaviy sport natijadorligi faqat qamrov bilan emas, balki aholining salomatlik ko'rsatkichlari bo'yicha ham baholanadi. Har bir viloyatda bittadan tumanda "salomatlik balansi" shakllantiriladi. Sport bilan faol shug'ullanuvchi aholi orasidan "sog'lom hayot volonteryolari" korpusi tashkil qilinadi. Ular mahallalarda sport va sog'lom turmush tamoyillarini targ'ib qiladi.

Davomi 2-betda

## KENG QAMROVLI HAMKORLIK MUNOSABATLARIGA IKKI MAMLAKAT PARLAMENTLARI FAOL HISSA QO'SHAYOTGANI QAYD ETILDI

**7-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenko bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.**

Subhat avvalida davlatimiz rahbari Valentina Matviyenkoni tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog'liq, baxt-saodat va katta muvaffaqiyatlar tiladi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga ikki mamlakat parlamentlari faol hissa qo'shayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Parlamentlar yuqori palatalari hamkorligi bo'yicha komissiyani yig'ilishlari har yili o'tkazib kelinmoqda. MDH Parlamentlararo assambleyasi doirasidagi aloqalar ham samarali yo'lga qo'yilgan.

Muloqot yakunida O'zbekiston yetakchisi ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi yaqin va sarmahsul hamkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashini yana bir bor tasdiqladi.

O'ZA

## ILGARI ORZU BO'LGAN NIYATLAR AMALGA OSHMOQDA

**Harakat qilgan inson, albatta, maqsadiga yetadi. Ayniqsa, bu harakatni qo'llab-quvvatlovchilar ko'p bo'lsa va u ishonch bilan uyg'unlashsa, yuksak marralar oson zabt etilaveradi. Hayot yo'limga qarab shunday to'xtama keldim.**



Bir zamonlar tadbirkorlik jinoyat hisoblangan. Mustaqillik sabab ish-bilamlik jinoyat emas, imkoniyat ekanini ochiq aytiladi. Yangi O'zbekistonda ikkita ish o'rni yaratishga qodir tadbirkor uchun ham barcha imkoniyatlar eshigi keng ochildi. Ya'ni barchaga teng, adolati xizmat qiladigan tizim yaratildi. Ana shu imkoniyatlar menga katta ishonch va ilhom berdi. Izlanish, o'rganish va tajriba orttirish orqali bu sohaga yanada chuqurroq kirib bordim. Dastlab ushbu yo'nalishda katta tajribaga ega Fotima Shodiyevaga shogird tushdim. U bilan hamkorlikda "Flora gullari" mas'uliyati cheklangan jamiyatini tashkil etib, gulchilikni zamonaviy asosda yo'lga qo'ydim.

Davomi 2-betda

## QUDRATLI TARIXIY TAFAKKURDAN QUVVAT OLIB YUKSALAYOTGAN YURT

**Amir Temur haykali qoshidagi o'ylar...**



### Buyuk o'zbek yo'li

Bahor yomg'iri qish izg'irini yuvib yubordi. Ayni tong shabadasi etni bir oz junjiktiradi, tanaga tetiklik bag'ishlaydi. Fikrimcha, yurtimizning bugungi tabiati yilning eng jozibali fursati. Atrof yashillikka burkangan, yo'l chetidagi momoqaymoq va boshqa turli gullar nigohlar notasini ohanglarga moslaydi. Odam pichirlabgina xirgoyi boshlab yuborganini o'zi ham bilmay qoladi. mir Temur haykali qoshidagi o'ylar...



Ha, aprel boshqa oylarga nisbatan ana shunday jihatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bu yilgi boshqacha, nazarimda. To'g'ri, barcha o'ying o'ziga xos tarovati bor. Lekin aynan bir o'ying boshqa yillardagiga

nisbatan alohidaligi, ajralib turishi har doim ham kuzatilavermaydi. Xususan, bu yilgi aprel ulkan bunyodkorlik, yaratuvchanlik harakati — Milliy dendrologiya bog'ini barpo etishga start berishdan boshlandi.

Prezidentimiz "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekish tadbirida ishtirok etib, ushbu xayrli loyihani boshlab berdi.

Davomi 3-betda



### Mulohaza

## EKOLOGIK TARAQQIYOT: TABIAT VA JAMIYAT O'RTASIDAGI MUVOZANAT

Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar har bir davrda jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri bo'lib kelgan. Bugungi global o'zgarishlar, iqlim muammolari va resurslar tanqisligi sharoitida bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tabiat endi cheklanmas boylik emas, balki ehtiyotkorlik, ongli munosabat va mas'uliyat talab qiladigan tirik tizim sifatida anglanmoqda. Shu bois, uni asrash, kelajak avlodlarga sog'lom muhit qoldirish har bir insonning burchiga aylanmoqda.

Yurtimizda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar bosqichma-bosqich umummilliy harakatga aylanib bormoqda. Ayniqsa, daraxt ekish, yashil hududlarni kengaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslar keng quloch yo'ldi. Davlatimiz rahbarining "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekib, Milliy dendrologiya bog'ini barpo etishga start berishi bu yo'nalishdagi islohotlarning amaliy va ramziy ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Bu xalqimizning azaliy qadriyatlarini zamonaviy ekologik tafakkur bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda "yashil" energetikaga bo'lgan talabning ortishi ham aynan shu jarayonlar bilan bog'liq. An'anaviy energiya manbalari atrof-muhitga salbiy ta'siri global muammolarni keskinlashtirayotgan

bir paytda, qayta tiklanuvchi energiya manbalari o'tish ekologik barqaror taraqqiyotning muhim shartiga aylanmoqda. Mazkur jarayon insonning tabiat ustidan hukmronlik qilishdan ko'ra, u bilan hamkorlikda yashashga intilayotganini ko'rsatadi.

Suv resurslari bilan bog'liq muammolar esa bu haqiqatni yanada yaqqol namoyon etmoqda. Iqlim o'zgarishi, aholi sonining o'sishi va suvdan nooqilona foydalanish natijasida suv tanqisligi kuchayib, qishloq xo'jaligi, sanoat va aholi hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, "yashil" energetikani rivojlantirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish o'zaro bog'liq masalalar sifatida qaralmoqda.

Davomi 4-betda



# JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOG'LOM TURMUSH TARZI, MAMLAKAT NUFUZINI NAMOYON ETADIGAN KATTA KUCH

## Boshlanishi 1-betda

Har bir tumanda ushbu tizimda eng namunaviy bo'lgan 10 tadan mahallaga bepul sport formasi va anjomlari berib boriladi. Qaysi mahallada sportga qamrov o'sha, aholining salomatligi yaxshilansa, yurak-qon tomir va diabet kasalliklari kamaysa, yil yakuni bilan volontyor hamda mahalla raisiga 15 million so'mgacha mukofot beriladi. Ushbu mahallada ommaviy sportga mas'ul trenerga esa 200 foizgacha oylik ustama to'lanadi.

Dunyoda maxsus jihoz va katta infratuzilmani talab qilmaydigan intensiv mashg'ulotlar, jumladan, kross-fit ommalashayotgani qayd etildi. Shu bois, 1-maygacha barcha maktab va texnikumlarda bu bo'yicha to'garaklar tashkil etish topshirildi. Kelgusi yildan kross-fit "Besh tashabbus" tizimiga kiritiladi.

Yig'ilishda davlat organlari va tashkilotlarida ham sportni ommalashtirish bo'yicha yangi tartib belgilandi. Endi har bir vazir, tarmoq va bank rahbari, viloyat va tuman hokimi o'z xodimlarining sport bilan shug'ullanishi uchun namuna bo'lishi va sharoitlarni kengaytirishi shart.

Shu maqsadda haftaning bir kuni sport kuni sifatida belgilandi. Bu kunda vazirlik, idora va tashkilotlarda sport mashg'ulotlari o'tkaziladi. Joriy yildan boshlab har yili vazirliklar, tarmoqlar, banklar va hokimliklar o'rtasida respublika birinchi hokimlari o'tkaziladi.

Xususiy sektor mehnat jamoalarida ham ommaviy sportni rivojlantirish

uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Jumladan, tadbirkorlar o'z ishchi-xizmatchilari uchun sport zali va maydoncha qurish hamda jihozlashga qilgan xarajatlarini foyda solig'i bazasidan chegira oladi. Jalb qilingan murabbiylar uchun daromad solig'i va ijtimoiy soliq 1 foiz miqdorida belgilandi.

Yig'ilishda aholini sportga jalb qilish va seleksiya ishlarida "mahalla — maktab — sport muassasasi — federatsiya" zanjiri asosida mutlaqo yangi yondashuv joriy etilishi ma'lum qilindi.

Endi oliygoh rektori, federatsiya rahbari va hokim o'rtasida uch tomonlama shartnoma tuziladi. Unga ko'ra, hokimlar hududdagi maktab, texnikum va boshqa sport obyektlarida darsdan tashqari vaqtda sport to'garaklari tashkil etish uchun shart-sharoit yaratadi.

Shuningdek, sport yo'nalishidagi oliygohlar talabalarini dual ta'lim bilan qamrab olib, ularni murabbiylik qilish uchun to'garaklarga yuborish muhimligi qayd etildi. Bunday talabalariga avtomatik tarzda murabbiylik sertifikatini beriladi. To'garaklardan tushgan daromadning 50 foizi murabbiy talaba ixtiyorida qoladi. Dual ta'lim bitiruvchilariga diplom bilan birga hakamlik sertifikatini ham beriladi.

Yig'ilishda joriy yilda yangi tizim orqali doimiy sport bilan shug'ullanuvchilar sonini 2 karra oshirib, 1 million nafarga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Mutasaddilarga sun'iy intellekt yordamida sportchi va murabbiylar natijalarini tahlil qilish, mashg'ulotlar rejasini tuzish imkonini beradigan yagona platforma yaratish topshirildi.

Sport sohasidagi ilmiy ishlar esa bundan buyon faqat dolzarb muammolar yechimiga qaratilgan bo'lishi, natijasi to'g'ridan to'g'ri amaliyotga joriy qilinishi shartligi ko'rsatib o'tildi. Agar olimlarning ilmiy ishi natija berib, sportchilarning yutuqlari va xalqaro musobaqalardagi medallari ko'paysa, bunday olimlar 100 million so'mdan mukofotlandi.

Olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Joriy yildan Prezident olimpiadasi doirasida musobaqa o'tkaziladigan sport turlari 2 karra ko'paytirilib, 21 taga yetkaziladi. Endi mazkur musobaqalar parasport bo'yicha ham tashkil etiladi. Har bir tuman va viloyat hokimi o'z hududida Hokim olimpiadasini o'tkazadi. Ularning g'oliblari Prezident olimpiadasiga yo'llanma oladi.

Adaptiv sport turlari bo'yicha kadr tayyorlash va malaka oshirish tizimi ham tubdan yangilanadi. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent filiali inklyuziv sport bo'yicha tayanch oliygohga aylandi.

Prezidentimiz parasportchilarimiz erishayotgan natijalarda ularga tunu kun hamrohlik qilayotgan fidoyi insonlarning hisssasi katta ekanini ta'kidlaydi. Endi o'quv-yig'inlar, respublika va xalqaro musobaqalarda parasportchiga hamrohlik qilgan shaxslarning transport va yashash xarajatlari qoplab beriladi. Ularga har oy sport maktabi trenerlari oyligiga teng miqdorda maosh to'lanadi.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonda sport inson salomatligi va yuqori natijalar garovi

bo'lish bilan birga daromad keltiradigan sohaga ham aylanishi zarurligini ta'kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, futbol bo'yicha milliy chempionat o'yinlarini tashkil etish masalalari ham ko'rib chiqildi. Ayrim o'yinlar ish vaqtida o'tkazilayotgani sababli muxlislar tashrif kutilgan darajada emasligi aytiladi.

O'yinlar vaqtini dam olish kunlari yoki ish kunlari kechki soat 19:00 dan keyin belgilash, stadionlar atrofida qo'shimcha xizmatlar, musiqiy va ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish, muxlislar uchun qulay transport qatnovini yo'lga qo'yish, arzon futbol turpaklarini taklif etish orqali stadionlarga muxlislar tashrifini keskin oshirish bo'yicha dastur ishlab chiqish vazifasi berildi.

Yig'ilishda joylardagi sport infratuzilmasi holati ham ko'rib chiqildi. Qayd etilganidek, hududlarda 39 ta ochiq va yopiq sport inshooti ta'mirlanib ahvolda bo'lgani sababli to'liq ishlalimayapti. Mutasaddilarga bunday obyektlarni zamonaviy sport majmualariga aylantirish uchun qulay shartlarda xususiy sheriklikka berish bo'yicha qaror loyihisini ishlab chiqish topshirildi.

Sport maktablarida yoshlar qiziqadigan noolimpiya sport turlari bo'yicha ham seksiyalar tashkil etish, O'zbekiston no-olimpiya sport turlari konfederatsiyasini tuzish taklifi ma'qullandi.

Yig'ilish davomida davlatimiz rahbari soha rahbarlari va hokimlarning hisobotlarini tingladi, tadbirkor va sportchilar bilan muloqot qildi.

O'ZA

## VYACHESLAV ARKADYEVICH GOLISHEV



Davlat va jamoat arbobi Golishev Vyacheslav Arkadyevich shu yilning 7-aprel kuni 75 yoshida vafot etdi.

Vyacheslav Golishev 1951-yil 4-mayda Rossiya Federatsiyasining Omsk shahrida tug'ildi. 1972-yilda Toshkent xalq xo'jaligi institutini (hozirgi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti) tugatib, iqtisodchi mutaxassisligini oldi. 1980-yilda M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti aspiranturasini tamomladi va nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Mehnat faoliyatini matbaa sohasida iqtisodchi sifatida boshlab, keyinchalik Toshkent xalq xo'jaligi instituti, O'zbekiston Davlat reja qo'mitasi huzuridagi Iqtisodiyot va normativlar ilmiy-tadqiqot instituti hamda respublika partiya va davlat organlarida turli lavozimlarda ishladi.

1992-1995-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jahon

muammolari instituti direktori o'rinbosari, Istiqbolni belgilash va statistika davlat qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. V.A.Golishev 2005-2006-yillarda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, iqtisodiyot vaziri, iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari kompleksi rahbari lavozimlarida mehnat qilib, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim yo'nalishlariga rahbarlik qildi.

Davlat boshqaruvi sohasidagi faol va tashabbuskor xodim sifatida ko'p yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat maslahatchisi lavozimida ishlab, o'zining boy tajribasi, chuqur bilim va salohiyati, fidoyilik hamda vatanparvarlik fazilatlarini namoyon etdi. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga oid davlat dasturlari va konseptual hujjatlarni ishlab chiqishda bevosita qatnashdi.

Bir necha marta O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga saylandi, parlamentarizm, mamlakatimizdagi o'zgarishlarning qonunchilik bazasini rivojlantirishga munosib hissa qo'shdi. Yangi avlod iqtisodchi kadrlarini tayyorlash borasida ham faol ish olib bordi.

Vyacheslav Golishevning mamlakatimiz va xalqimiz oldidagi ulkan xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan iqtisodchi" faxriy unvoni, "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan.

Davlat va jamoat arbobi, iqtisodiyot sohasidagi yirik olim va mutaxassis, yoshlarning mehribon ustози, samimiy va kamtarin inson Vyacheslav Arkadyevich Golishevning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, SH. AYUPOV, S. TURDIYEV

## ILGARI ORZU BO'LGAN NIYATLAR AMALGA OSHMOQDA



Sharofat NORIYEVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan tadbirkor

## Boshlanishi 1-betda

So'ng "Xolmo'minov Zohid" fermer xo'jaligini tashkil qilib, aholi va tashkilotlarga gul hamda manzarali daraxt ko'chatlari yetkazib berishga kirishdi. Qisqa vaqt ichida viloyatda bu sohada yetakchi ta'minotchilardan biriga aylandi. Faoliyatini yanada kengaytirish maqsadida fermer xo'jaligini ko'p tarmoqliga aylantirdi. Xorijdan zotdor echkilar olib kelib, sut yetishtirish va qayta ishlashni yo'lga qo'ydi. Quyonchilikni rivojlantirdi. Shuningdek, issiqxonalar xo'jaliklari, tikuvchilik va non pishirish sexlarini tashkil etdi. Shu orqali ko'plab ish o'rinlari ham yaratildi.

So'nggi o'n yildagi islohotlar sabab mana shunday katta ishlarni qo'rqmasdan, bemaol bajaradigan bo'ldi. Yana bir muhim jihat. Yangi O'zbekistondagi islohotlar sabab barcha masala mahallaning o'zida hal etiladigan bo'ldi. Bu xalqimizni rozi qilish yo'lidagi eng samarali islohotlardan biri. Ushbu fikrlarni tizimda ishlab, oddiy odamlar bilan muloqot qilgan uchun ishonch bilan aytayman. Ayni paytda Sharof Rashidov tumani Olmachi mahallasida hokim yordamchisi sifatida faoliyat yuritayman.

Mahallalarda aholi bandligini ta'minlash, ayniqsa, xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Mahalla yetiligi" ularning hunar o'rganib, biznesini boshlashi uchun zarur yordamni bermoqda. Ilgari fuqarolar ish izlab, tadbirkor bo'lish uchun imkon axtarib mas'ullar eshigidagi uzoq navbat kutardi. So'nggi o'n yilda bulardan

o'zgardi. Hozir mahalla faollari uyama-uy yurib, masalalarni o'rganmoqda. Birgina mahallamiz misolida ko'rsak, keyingi yillarda yuzlab ayollar tadbirkorligini yo'lga qo'yib, oilasi farovonligini ta'minlamoqda.

Xalqni rozi qilish yo'lidagi islohotlar haqida so'z ketganida "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ni ham eslash joiz. Ushbu daftarlardagi xonadonlarga issiqxonalar qurish va undan samarali foydalanish bo'yicha amaliy ko'mak beryapmiz. Natijada olis qishloq ayollarining hayot tarzi tubdan o'zgarib boryapti. Oddiy misol, mustaqil bo'lishimizdan avval qishloq ayollariga paxta chopiq qilib, uni teradigan mehnatkashlar deb qaralardi. Keyin ham bu qarash unchalik o'zgaradi. To'g'ri, majburiy paxta terimidandan qutuldik. Ammo yashash sharoitimiz, biror ish boshlash, jamiyatda faol bo'lishimiz uchun imkoniyatlar cheklangan edi. Ayollar ko'proq ta'lim va tibbiyot sohasi bilan cheklanib qolardi. Tibbiyot va ta'lim xodimlari esa majburiy mehnatning old safida edi.

Mamlakatimiz rahbarining siyosiy irodasi sabab majburiy mehnatga to'la barham berildi. Yillar davomida to'planib qolgan masalalarga yechimlar taqdim etila boshlandi. Sinovli davrlarda aholining himoyaga muhtoj qismi birinchi o'rinda jabra tortadi. Yangi O'zbekistonda, avvalo, mana shu qatlamning qaddini ko'tarishga qaratilgan islohotlar boshlandi. Bunga ijtimoiy daftarlar tajribasini misol qilish mumkin.

Natijada joylarda ayollar va yoshlar tadbirkorligi keng quloq yozdi. Buning samarasi o'laroq, eng chekka qishloqlarda ham ayollar, yoshlar katta marralarni belgilab, dadil harakat qilishga o'tdi. Bir vaqtlar qishloq ayoli uy-ro'zg'or ishlari bilan band edi. Hatto uyida kir yuvadigan



mashinasi bo'lishi hayratlanarli, alohida maqom edi. Bugun qishloq ayoli bolasini bog'chaga berib, o'zi ishga, hunar o'rganishga, yoshi katta bo'lsa ham oliy ta'lim olishga, umuman, yangi rejalar sari yo'lga chiqqan jamiyatning faol a'zodir.

Mustaqillik bizga beqiyos imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Ilgari faqat orzu bo'lib tuyulgan niyatlar bugun hayotimiz haqiqatiga aylangan. Ayniqsa, tadbirkorlik sohasida yaratilgan shart-sharoitlar, davlat tomonidan berilayotgan qo'llab-quvvatlash intilayotgan har bir insonga o'z salohiyatini namoyon etish imkonini bermoqda. Yangi O'zbekistonda davrida esa bu imkoniyatlar yanada kengayib, inson qadri, uning mehnati va tashabbusi eng ustuvor qadriyatga aylandi.

Ancha yil avval Toshkentda yashaydigan ikki dugonam mehmonga keladigan bo'ldi. O'shanda kech kuz edi. Yo'l uzoqligi bois, poyezdga chiqishibdi. U paytlari poyezd Toshkentdan Qarshiga qadar bir kun yurardi. Tushdan keyin chiqishgan bo'lsa, tongda Qarshiga kirib kelgan. Hozirgidek telefonlar qayerda deysiz. Ancha vaqtgacha taksi kutib, zo'rg'a Shahrisabz markaziga yetib kelibdi. Mening esa ko'zim yo'lda. Qachon kelisharkan, deya intizor bo'lib o'tiribman. Nihoyat, kunbotar mahal kirib kelishdi. Kayfiyatlarini yaxshi emasdi. Yo'lda charchashgandir, dedim o'zimcha.



Zulfiya ALLAYEVA, Shahrisabz tumanidagi Miraki mahallasi maslahat guruhi rahbari, II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni sohibi

## MUSTAQILLIK TO'YLARI INSON QADRI ULUG'LANGAN ELGA YARASHADI

Mehmonlarning ko'nglini olishga intildim. Ular tongdan beri saron bo'lganini aytib, Miraki juda chekkadagi qishloq ekanini bilganimizda kelmasdik, dedi. Bu gaplar yuragimga og'ir bosa-da, ilojisiz jim edim. Bir amallab ularni xushnud etdim. Nihoyat, dasturxon boshida ochiq chehra bilan o'tirgan edik, chiroq o'chib qoldi. Mehmonlar yana tund bo'ldi. Fonusni topib yoqdim-da, o'rta qo'ydim. O'sha kuni fonsuning xira yorug'ida tong o'ttirdik. Rejaga ko'ra, ikki-uch kun mehmon bo'lishi kerak edi. Ammo etasi kuni azonda ketish taraddudiga tushdi. Shunda qishloqda yashayotganimdan uyalganman. Ha, bu mening ayibim emasdi, ammo uyaldim.

Bir necha yillar mahallada ishladim. Idoramiz eski xonada joylashgan, sharoit o'ziga yarasha edi. Ish yuzasidan kunora tuman markaziga qatnashga to'g'ri kelardi. Gohida yo'l yomonligidan mashinalar qatnovi to'xtab qolardi. Ayniqsa, qish kunlarida qatnov butunlay og'irlashardi. Shunday paytlari ilojisiz qolardi. Ishsizlik esa asosiy muammomiz bo'lgan. Hududimiz so'lim joyda bo'lgani bois, ko'pchilik yozda dam olishga kelardi. Lekin xizmat ko'rsatish deyarli nolga teng edi.

Yangi O'zbekistondagi islohotlar mahallamizga yangi hayot nafasini olib kirdi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Miraki turizm mahallasiga aylantirildi. Katta loyihalar

ishlab chiqildi. Tez orada ulkan bunyodkorlik ishlari bajarilib, ko'pchilik havas qiladigan manzilga aylandi. Yo'llarimiz yaxshilandi. Shahrisabzga poyezd qatnovi yo'lga qo'yildi. Bir qancha mehmonxonalar barpo etildi. Dam olish maskanlari qad rostladi. Endi avvalgidek saron bo'lish yo'q. Hozir mamlakatimizning turli joylaridan, chet eldan mehmonlar kelmoqda. Bu yerdagi sharoitlarni ko'rib, qvonishmoqda.

O'yab ko'rsam, qisqa fursatda misli ko'rilgan ishlar qilinibdi. Natijada yangi ish o'rinlari ochildi. Hudud butunlay o'zgacha qiyofaga kirdi. Misol uchun, bir paytlar mahallamiz yoshlari ish izlab xorijga ketardi. Bugun shu yerning o'zida daromad topmoqda. Deyarli bekor yurgan yoshning o'zi yo'q. Odamlarning yashash tarzi o'zgarib, hayotdan roziligi ortmoqda.

Bugun kimdir mehmonga kelmoqchi bo'lsa, hech ikkilanmay, faxr bilan taklif qilamiz. Yaqinda o'sha davrda qiyinchiliklar bilan kelgan dugonalarim yana mehmon bo'ldi. O'zgarishlarni ko'rib, hayratda qoldi. Bir hafta yurib, maza qilib dam olishdi. Ilgari kelgan vaqtidagi sharoitlar, o'voragarchiliklarni esladik. Bugungi farovonlikka havas ila boqishdi.

Hozir yetimish yoshdaman. Shu yoshga qadar odamlarni rozi qilish uchun bunchalik jiddiy e'tibor berilganini eslay olmayman. Bu barchamizning baxtimiz. Gohida olisdagi

tanishlarim telefon orqali hududimiz obodligi haqida so'rab qoladi. Shunda ming bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rgan afzal, deymen. Rosti, bugun nafaqat mahallamizga, balki Shahrisabzga kelgan kishi islohotlar samarasini o'z ko'zi bilan ko'rib, qvonadi.

O'tgan yili Prezidentimiz Qashqadaryoga tashrif davomida mahallamizga ham kelib, bu yerdagi obodlik va qulayliklarni ko'zdan kechirgandi. O'shanda kerakli ko'rsatmalar berilib, yanada qulayliklar yaratilishi ta'kidlangandi. Natijada Oqsuv daryosining ikki qirg'og'i bo'ylab piyoda va velosipedda yurish uchun o'n kilometrli ekoyol tashkil etildi. Bolalar maydonchasi, ko'ngilochar bog', nuroniyar maskani, oilaviy mehmon uylari hamda ko'chma savdo shoxobchalari mahalla ko'rkiga ko'rk qo'shdi.

Amalga oshgan ishlar natijasida bir vaqtning o'zida 600 sayohatni qabul qiluvchi mehmonxonalar, 300 o'rinni oilaviy xostel ochildi. Bu yilga 300 mingdan ortiq mehmonga xizmat ko'rsatilishini anglatadi. Umuman olganda, nafaqat bizning mahalla, yurtimizning har bir manzili o'zgarimoqda.

Bu yil mustaqilligimizning 35 yilligi keng nishonlanadi. Bu borada ham muhim vazifalar belgilab olindi. E'tiborimni tortgani joylarda "Mustaqillik to'ylari" o'tkazilar ekan. Inson qadri ulug'langan yurtga to'ylar yarashadi.





Buyuk o'zbek yo'li



“Amir Temur hukmronligi yillari Buyuk ipak yo'lidagi savdo-sotiq, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot eng gullagan davrlar sirasiga kiradi. O'sha paytda karvon yo'li markazida joylashgan Samarqand, Buxoro kabi qadim kentlarimiz dunyoning savdo, tijorat, ilm-fan, madaniyat va san'at markazlari sifatida olamga mashhur bo'lgan.



# QUDRATLI TARIXIY TAFAKKURDAN QUVVAT OLIB YUKSALAYOTGAN YURT

## Amir Temur haykali qoshidagi o'ylar...



Sanjar ESHMURODOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Shu kuni Prezidentimiz “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qarorni imzoladi. Nazarimda, “Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” bosh g'oyasi asosida nishonlanishi belgilangan mustaqilligimizning shonli 35 yilligiga taraddud allaqachon yurtimizning barcha hududi, shaharu qishloqlarida boshlangan.

Boshqa tomondan, ayni kunlarda Amir Temur bobomiz tavalludining ham 690 yilligi keng tantana qilinmoqda.

Bu yilgi aprelning o'ziga xosligi mana shu yerda yaqqol namoyon bo'ladi. Zero, biz uchun muqaddas ne'mat — istiqlolimizning 35 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi qarorning buyuk bobomiz Amir Temur tavalludining shonli sanasi arafasida qabul qilinganida katta ma'no mujassam. Boshqa tomondan, mamlakatimizda bundan 9-10 yil oldin boshlangan yangi O'zbekiston islohotlari uch ming yillik tariximiz, xususan, Amir Temur bobomizning davlatchilik tutumiga hamohang.

Mana shular haqida o'ylab, har biridan kuch, ruhiy quvvat olib, xush kayfiyatda ishga yo'l oldim. Yashash joyim shahar tashqarisida. Shuning uchun poytaxt markazi — Amir Temur xiyoboni yaqinida joylashgan ishonamgacha ancha yo'l bosaman. Metroning xiyobon nomiga qo'yilgan bekatan chiqib, Sohibqiron bobomiz haykali ishora qilib turgan tomon yuraman. Ammo bugun negadir metrodan chiqqach, bir dam xiyobon tarovatini tuygim keldi. Haykal poyidagi o'rindiqlardan biriga o'tirdim. Ot ustidagi Amir Temur haykalining haybatini ko'rib, ruhiyatim yanada ko'tarildi.

Haykal poyida tulporining tuyog'idan o't chaqnan, qilichining damidan devlar hayiqqan, ko'zidagi qat'iyat sargaklantirgan, marhamati to'liqlantirgan, qilichidan-da so'zi, adolati, aql-zakovati o'tkir Sohibqironning buyukligini hatto tasavvur etishga ham ojizdek his qildim o'zimni. Bobomizning naqadar ulug' ishlari qilganiga tarix guvoh.

Oradan shuncha yil vaqt o'tgan bo'lsa-da, Sharq G'arb, Shimolu Janub — dunyoning to'rt nuqtasiga borib, tarixdan ozgina xabari bor insondan Amir Temur haqida so'rang, albatta, biladi. Ha, shuning uchun ham biz har doim bobomizdan cheksiz faxr-iftixor tuyamiz. Qayerda bo'lmaylik ko'ksimizni kerib, “Temuriylar keldi...”, deya xitob qilamiz.



Ammo doim aqlimizda bir savol chax uradi. Xo'sh, biz bugun shunday ulug' bobomizga munosibimizmi, ularning buyuk ishlarini qay darajada davom ettira o'laymiz? Boy hayotiy tajribaga asoslanib aytgan fikrlari, hikmatlariga amal qilyapmizmi o'zi?..

### “Bizning qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurgan imoratlarga boqing!”

Sohibqiron bunyod etgan muhtasham tarixiy yodgorliklardan biri — Oqsaroy peshtoqiga bitilgan ushbu jumlar shunchaki bezak yoki havoyi so'zlar emas, tagzamidra katta mohiyat, chuqur ma'no bor. Haqiqatan, Amir Temur davrida qurilgan yoki uning tashabbusi bilan bunyod etilgan eng mashhur me'moriy obidalar son-sanoqsiz va muhtashamdur. Bu inshootlar faqat me'moriy emas, balki davlat qudrati, siyosiy g'oya va madaniy siyosat ramzi ham bo'lgan. Samarqandning “ro'yizamin sayqali”, deya e'tirof etilishida Sohibqironning bunyodkorlik ishlari debocha bo'lgan.

Ayni paytda ham yurtimizda xuddi ana shunday bunyodkorlik ishlari davom etmoqda. Yangi Toshkent loyihasini aytasizmi, Olimpiya shaharchasi yoki hududlardagi “Yangi O'zbekiston” massivlarini — har biri tarixiy o'zligimizga xos ana shunday bunyodkorlik namunalaridan.

Uzoqqa bormaylik, yaqindagina qurib bitkazilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi yoki qayta bunyod etilgan Imom Buxoriy majmuasini olaylik. Har ikkisi ham noyob darjoda. Yangi O'zbekistonning tarixiy bunyodkorlik salohiyatiga mos inshootlar.

Dunyoning nufuzli 10 muzeyi ro'yxatiga kiritilgan Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishi, shubhasiz, avvaldan islom dinining markazi deb ulug'langan Buxoro kabi shaharga ega O'zbekistonning keyingi yuz yilliklarda ham islom olamining markaziy davlatlaridan biri sharafiga loyiq ko'rinishiga zamin yaratadi. Xuddi shunday, Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasining yangi qiyofasi ham butun dunyo musulmonlari nigohini O'zbekistonga qaratgan, ushbu majmuani ziyorat qilish orzusini qalbiga muhrlagan ayni haqiqat.

Amir Temur qurdigan masjid muqaddas musulmon olamidagi eng muhtasham tarixiy yodgorliklar bo'lishi bilan bir qatorda, Sohibqironning qanchalik iymon-e'tiqodli, pir-ustozlar, aziz-avlodyolarga katta hurmat va e'tibor bilan qaraganini bildiradi. Masalan, Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Bu maqbaraning qurilishi haqida “Zafaroma”da bunday bitilgan. “Buyurdikim, ul mozori ustiga imorati oliy soldilar va bir ulug' toq (gumbaz) bog'lalarkim, ko'k bila so'zlashur erdi... Va farmon bo'ldikim, tomlarini rangin koshin bilan muzayyan qilsunlar (chiroyni bezasunlar).

Va Xojaning qabrini oq tosh bila yasadilar... Ikki yildan so'ng ul imorat tugandi. Ul imorat tugagandan so'ng andag'i faqiru miskinlarga ko'b sadaqlar berdilar...”

Bu iqtibos zamirida chuqur ma'no-mazmun, mohiyat bor. Amir Temur nafaqat hashamatli imoratlar barpo etgan, balki xalqning dunyoqarashi, tafakkurini o'stirish, odamlarda bunyodkorlik, ezigulik g'oyalari ustun bo'lishi uchun da'vat etgan, bunday kishilarni esa doimo qo'llab-quvvatlagan. Zero, “Temur tuzuklari”da “Amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz (yer tagidan o'tkazilgan suv yo'li yoki ariq) qursa, yo biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa (ya'ni soliq) olmasunlar... xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursunlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsunlar, ariqlar va daryolar ustiga ko'priklar qursunlar, yo'li ustida har manzilgohga rabotlar bunyod etsunlar... katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsunlar, faqiru miskinlarga langarxona solsunlar, bemorlar uchun shifoxona qurdursunlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasunlar. Har bir shaharda dor ul-imorat (saroy) va dor ul-adolat (qozixona) qursunlar...”, deya qayd etilgan ham so'zimiz isbotidir.

Bugungi ortga qaytmas islohotlarning zamirida ham xuddi mana shu maqsad va muddao mujassam. Bu tadbirkorlarga berilayotgan turli imtiyozlar, yaratib berilayotgan imkoniyatlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

### “Shoh bo'lsang-da, bog' yarat, gado bo'lsang-da, bog' yarat...”

Ushbu kalom muallifi, ulug' bobomiz, avvalo, bunga o'zi amal qilib, dunyoga dong'i ketgan bog'rog'lar barpo etgan. Uning chorbog'lari jahon bog'dorchiligi tarixida alohida o'rin egallaydi. Muarrix Abu Tohirxo'ja Samarqandiy bunday yozadi: “Samarqandda Amir Temur Ko'ragon soldirgan bog'larkim, Eram gulistonni rashk qilar darajada, yetitta ekan: birinchisi — Bog'i Shimol — Samarqand shimolida. Devori Qiyomat ichida. Ikkinchisi — Bog'i Baland. Uchinchisi — Bog'i Behisht. To'rtinchisi — Bog'i Chinor. Bu ikki bog' shaharning kunchiqar tomonida. Beshinchisi — Bog'i Dilkusho bo'lib, Koniglining janub tomonida. Konigil Ko'hak daryosining yoqasida, Samarqandning eng go'zal va chiroyni yeridir. Oltinchisi — Bog'i Zog'on — Shovdor tumanining shimol tomonida voqe'dir. Yetinchisi — Bog'i Jahonnamo — Anhor tumanida bo'lib, tog' etagiga yaqin yerda, Samarqandning janubida bunyod qilingandir...”

Bu e'tirofda Sohibqiron barpo etgan bog'larning yettitasigina tilga olingan. Aslida, Samarqandning o'zida Amir Temur o'ndan ortiq bog' qurdigan.

Shu yil 2-aprel kuni mamlakatimiz yetakchisi boshchiligidagi respublika miyosida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekish tadbiri o'tkazildi. Xayrli tadbir doirasida Milliy dendrologiya bog'ini barpo etishga start berildi. Ushbu voqea bobomizning ezu ishleri bugun ham davom ettirilayotganidan dalolat. Bir necha yil, aniqrog'i, besh yil oldin boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 million toq ko'chat ekilayotgani, o'tgan davrda 2000 gektardan ziyod maydonda 942 ta yashil bog' va yashil jamoat parki, 47 ta massivda “Yangi O'zbekiston bog'lari” barpo etilganini e'tiborga olsak, bu ishlar davlat siyosati darajasida bajarilayotganini anglaymiz. Bundan tashqari, respublikaning tog', cho'l va adir hududlarida 256 ming gektar o'rmon tashkil qilindi. Orolning

qurigan tubidagi 2 million gektar maydonda yashil qoplamali himoya o'rmonlari barpo etildi. Shamol va qum-chang bo'ronlari zararli ta'sirining oldini olish maqsadida 33 tumanda 60 kilometrli “yashil belbog” hosil qilindi. Umuman, qisqa muddatda respublikada yashillik darajasi 8 foizdan 14,2 foizga oshdi.

Xalqimizda yaxshidan bog', yomondan dog' qoladi, degan naql bor. Ayni paytda ham Shahrisabz, Samarqand va boshqa shaharlarda Amir Temur davrida ekilgan, yoshi yarim asrdan oshgan chinorlar barq urib turganini ko'rganda bu hikmatning naqadar to'g'ri ekaniga amin bo'lamiz. Bugun yerga qadalayotgan nihollardan etaga farzandlarimiz manfaat ko'rishi — mevasini yetishi, soyasidan bahramand bo'lishi, toza kislorodidan to'yinib simirishini o'ylasak, belga quvvat, bilakka kuch, qalbga shijoat kiradi.

### “Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash bilan amalga oshirdim”

Sohibqiron bobomiz tuzuklarida “Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushni qilich bilan amalga oshirdim”, deya xitob etgan. Bugungi dunyo mamlakatlari orasida ijtimoiy-siyosiy kelishmovchiliklar, iqtisodiy buhronlar yanq o'layotgan bir davrda ushbu ibora mohiyati avjda katta ahamiyat kasb etadi. Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar g'oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos solgan Amir Temur ushbu so'zlarini aytibgina qolmay, davlat boshqaruvi, tashqi siyosat, harbiy yurishlarda ushbu arkonga qat'iy amal ham qilgan.

Shuningdek, Amir Temur hukmronligi yillari Buyuk ipak yo'lidagi savdo-sotiq, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot eng gullagan davrlar sirasiga kiradi. O'sha paytda karvon yo'li markazida joylashgan Samarqand, Buxoro kabi qadim kentlarimiz dunyoning savdo, tijorat, ilm-fan, madaniyat va san'at markazlari sifatida olamga mashhur bo'lgan.

Boisi, u yerda yirik bozorlar, saroy va qal'alar qad rostlagani aholining farovon hayot kechirishiga zamin yaratgan bo'lsa, ilm-fan rivoji hisobiga buyuk alomalar yetishib chiqishi bu shaharlarga ko'chib keluvchilar oqimini muttasil oshirgan.

Shu o'rinda bir faktga e'tibor qaratish joiz. Amir Temur davrida g'arbiy Yevropadan temuriylar davlatiga ko'plab elchilar, savdogarlar hamda davlat amaldorlari tashrif buyurgan. Mehmonlar zavlat-ikrom bilan kutib olingan hamda temuriylar davlatining savlati va salohiyati ularning tilida dostonga aylangan.

Amir Temur saroyida bo'lgan Ispaniya elchisi Rui Gonzaless de Klavixo kundaliklarida sohibqiron hamda u tuzgan buyuk davlat haqidagi fikrlarini yozib qoldirgan. Hozir ushbu qo'lyozma o'sha davrdagi muhim manbalardan. Shuningdek, Italiya, Fransiya hamda Germaniyadan ham turli elchilar kelgan. Turli mamlakatlardan hamkorlik o'rnatilgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Prezidentlik faoliyatining ilk kunlaridanoq qo'shni mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlarni mustahkamlash, o'zaro kelishmovchiliklarga barham berish siyosatini ilgari surdi. Uzoq yillar davom etib kelgan o'zaro sovuq munosabatlarga barham berishga kirishildi. Aslida, Markaziy Osiyo xalqlari ming yillik qardoshlik aloqalari bilan bog'langan, ta'bir joiz bo'lsa, azaldan bir daryodan suv ichgan, qadriyatlari, urf-odat yuqin bo'lgan xalqlardir. Quda-anda, qarindoshlik

munosabatlari asrlar davomida shakllangan.

Keyingi yillarda Prezidentimizning kuchli siyosiy irodasi, oqilona tashabbuslari hamda qo'shni mamlakatlar rahbarlarining xayrixohligi, ezu tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashi bilan mintaqada do'stlik-birodarlik rishtasi mustahkamlandi. Hudduda tinchlik-totuvlik, yaxshi qo'shniçilik munosabatlari tiklandi. O'tgan yili bahorda O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida uch mamlakatning davlat chegaralari tutashgan nuqta hududi to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Chegaralar tutash hudduda qad rostlagan “Do'stlik stelasi” mamlakatlarimizning do'stlik va mintaqaning tinchlik-totuvlik ramziga aylandi.

O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston chegaralarining tutash hududi to'g'risidagi shartnoma ilgariroq imzolangan edi. Bugun Markaziy Osiyodagi bahsli chegaralar masalasi butkul istiqbolli yechim topdi, deyish mumkin. Ilgari o'z muammolariga o'rashib qolgan davlatlar yagona must kabi jipslashib, taraqqiyot sari dadil idamlay boshladi. Shuningdek, qardosh



turkiy mamlakatlar bilan ham o'zaro manfaatli hamkorlik navbatidagi bosqichga ko'tarildi.

Bugun O'zbekiston eng rivojlangan mamlakatlar bilan yuqori darajada ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik qilmoqda. Davlatimiz rahbarining o'zaro teng va manfaatli hamkorlik haqidagi taklifi dunyo davlatlari nigohini mamlakatimizga qaratdi. Bu esa mamlakatimizga katta sarmoya oqimi kelishi hamda turli bunyodkorlik ishlari jadallashishiga zamin yaratdi.

O'tgan yili yurtimizda bo'lib o'tgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti hamda to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida ko'plab kelishuv va shartnomalar imzolandi. Ushbu tadbirlarda Yevropa davlatlari bilan hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi.

Bu natijalarga, albatta, davlatimiz rahbarining oqilona, uzoqni ko'zlab yuritayotgan siyosati orqali erishilmoqda. Prezidentimiz o'tgan vaqtda xalqaro siyosiy maydonda O'zbekiston imijini yuqori bosqichga ko'tardi. Buni davlatimiz rahbarining xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT sessiyalarida ilgari surgan takliflari tezda hayotga tatbiq etilayotganida ham ko'rish mumkin. Ushbu tadbirlarda Yevropa davlatlari bilan hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi.

### Mot bo'lmagan hukmdor

Markazlashgan davlat tuzgandan so'ng 100 dan ortiq harbiy yurishda biror marta mag'lub

bo'lmagan Amir Temur shatranj (shaxmat)ga shunchaki ermak yoki vaqtini xush o'tkazadigan mashg'ulot emas, balki hozirgi til bilan aytganda, taktik nazariy bilimlarni mustahkamlash vositasi sifatida qaragani manbalarda keltirilgan. Masalan, ingliz olimi, yozuvchisi Xilda Xuxxem “Amir Temur ko'p vaqtini shatranj o'yini ustida o'tkagan. U o'z davrining mashhur shatranjchilari bilan bemalol bellasha olgan”, deya qayd etgan.

Yana bir tarixiy manbada esa harb ilmi va shatranjda tengsiz Sohibqiron bobomiz odatdagi shaxmatning qonun-qoidalarini isloh qilib, murakkab shaxmat turini yaratgani va unga “Shatranj komil” yoki “Shatranj al-kabir” deb nom bergani bayon etiladi.

Yana bir qiziq ma'lumot. Amir Temur davrida kuchli shatranjchilar Samarqandda jamlangan va o'zaro dona surgan. Temur tashkil etgan musobaqalarda ko'p bor g'oliblikni qo'lga kiritgan tabrizlik ash-Shatranjiy (Alouddin Tabriziy) shatranj haqida kitob yozib, unda o'zi hamda XIV asrgacha Markaziy Osiyoda yashagan ko'plab oliya (grossmeister)lar haqida ma'lumot bergan. U hatto Sohibqiron bilan ham shatranj o'yinab turgan.

Bugun ham bunday musobaqalarning yurtimizda tashkil etilishi odatiy holga

aylanmoqda. Masalan, joriy yil Samarqand shahrida 46-jahon shaxmat olimpiadasi bo'lib o'tadi. Aql o'yiniga qiziqish o'zbek yoshlari uchun bobomerosdir. Bugun ham shaxmat har bir o'zbek oilasining sevimi o'yinlaridan. Sevimi o'yiniga bo'lib qolmay, Nodirbek Abdusattorov, Jahovir Sindarov, Nodirbek Yoqubboyev, Shamsiddin Vohidov kabi yoshlarimizni dunyoga tanitgan.

Voha tomonlarda bir qishloqdoshni tanish uchun “Isming nima?”, deb emas, “Kimlardansan?” degan savol beriladi. Bobongizning ismi yoki familiyasini aytib, javob berasiz. So'roqqa tutgan odamlar bobongiz qanday odam bo'lgani, qanday ishlar qilganini hisobga olib, sizga muomala qiladi. So'zingiz, amalingizga ishonchi ham shunga qarab shakllanadi.

Aslida, butun dunyoda shunday. Sababi qayerga bormaylik, biz — o'zbeklarga Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek avlodlari sifatida qarashadi. Xalqaro maydonlarda ortiqcha gap-so'z qilishdan iymanshirlari bor gap. Ertaga avlodlarimiz ham mana shunday qadr-qimmat ko'rishi, davrning eng to'rida o'tirishi bizning bugungi sa'y-harakatlarimiz, farovon va taraqqiy etgan yangi O'zbekistonni ularga meros qilib qoldirishimizga bog'liq. Bundan esa ko'nglim to'q, nazarimda, 38 million nufusli yurtidoshlarimizning ham bu boradagi ishonchi mustahkam. Zero, keyingi 9-10-yilda mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lida olamshumul o'zgarishlar kuzatilyapti, tarixiy g'alabalari, katta natijalarga erishilmoqda. Asosiyi, bu yo'ldagi sa'y-harakatlar susaygani yo'q, islohotlar ortga qaytmas tus olgan.



Mulohaza



# EKOLOGIK TARAQQIYOT:

## TABIAT VA JAMIYAT O‘RTASIDAGI MUVOZANAT

### Boshlanishi 1-betda

Bu esa taraqqiyot va tabiat o‘rtasida yangi muvozanat izlashni taqozo etmoqda. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida joriy yil uchun belgilangan beshinchi ustuvor yo‘nalish — ekologik muvozanatni ta‘minlash, “yashil” energetikani rivojlantirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish aynan shu hayotiy ehtiyojdan kelib chiqadi.

### Iqtisodiy barqaror model

Bu yo‘nalish, avvalo, iqtisodiy o‘shirishni ekologik mas‘uliyat bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Yirik korxonalarda filtrlar, tozalash jihozlari va havoga chiqarilayotgan zararli moddalarni monitoring qilish stansiyalarini o‘rnatish uchun 100 million dollarlik kredit liniyasi ochilishi davlatning atrof-muhitni muhofaza qilishda faol va tizimli yondashuvini ko‘rsatadi. Bu qaror sanoat taraqqiyoti tabiat hisobidan emas, balki ekologik standartlarga tayanilgan holda amalga oshirilishi kerakligini anglatadi. Chunki tabiatni ifloslab yaratilgan iqtisodiy o‘shirish barqaror bo‘la olmaydi.

Yil sayin ekologiya sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish ham muhim strategik ahamiyat kasb etib bormoqda. Samarqand shahrida Global ekologik jamg‘armaning navbatdagi assambleyasi va Markaziy Osiyo xalqaro ekoko‘rgazmasi o‘tkazilishi rejalashtirilgani O‘zbekistonning mintaqaviy ekologik tashabbuslar markaziga aylanayotganini ko‘rsatadi. Bu tadbirlar nafaqat tajriba almashish, balki yangi ekologik loyihalarni amalga oshirish, biznes va hududlar o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun ham keng imkoniyat yaratadi.

Bugun shaharlarning ekologik holati qoniqarli emas. Jumladan, Toshkent shahri hamda viloyatdagi minglab ko‘mir va gazda ishlovchi issiqxonalar havoga yuz minglab tonna zararli modda chiqarayotgani inson salomatligi va shahar muhiti uchun jiddiy tahdid. Filtresiz ishlaydigan qozonxonalardan voz kechish, issiqxonalarini poytaxt atrofidan ko‘chirish va markazlashgan qozonxonalarga o‘tish ekologik hamda shaharsozlik nuqtayi nazaridan ham to‘g‘ri qarordir. Agroklasterlar tashkil etilib, issiqxonalariga alohida subsidiyalari ajratilishi esa “yashil iqtisodiyot”ni rag‘batlantirishning amaliy namunasi.

Transport sohasidagi muammolar ham ekologik tafakkurni o‘zgartirishni talab qilmoqda. Shaharlardagi tirbandliklar vaqt va asab bilan birga toza havoni ham “yo‘qotmoqda”. Ekologik stikerlar tizimi joriy etilishi, yuqori darajada ifloslantiruvchi avtomobillarning shaharlarga kirishini cheklash inson salomatligini iqtisodiy manfaatdan ustun qo‘yayotgan yondashuvdir. Davlat tomonidan eski avtomobillarni yangilash yoki ularga filtr o‘rnatish uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlov taqdim etilishi esa ekologik talablarni ijtimoiy adolat bilan uyg‘unlashtiradi.

Jamoat transportini rivojlantirish, maxsus yo‘laklar tashkil etish, transport harakatini intellektual tizimlar orqali boshqarish shaharlarni qulay, ekologik barqaror makonga aylantirishga xizmat qiladi. Elektromobillarni ko‘paytirish bo‘yicha besh yillik dastur, imtiyozli kreditlar, zaryadlash infratuzilmasini qo‘llab-quvvatlash — bularning barchasi kelajak shaharlari qanday bo‘lishi haqidagi aniq tasavvurni shakllantiradi. Eng muhimi, bu choralar ko‘rilsa, shaharlardagi ekologik transport hududlariga aylinishi mumkin.

Ekologik muvozanat faqat sanoat va transport bilan cheklanmaydi. Chang-to‘zonlarning oldini olish, iqlim o‘zgarishining salbiy ta‘sirini yumshatish maqsadidagi keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish ishlari tabiatni tiklashga qaratilgan uzoq muddatli investitsiyadir. Orolning qurib qolgan tubida, cho‘llanishga moyil hududlarda millionlab daraxt va buta ko‘chatlarining ekilishi insonning tabiat oldidagi qarzini to‘lashga urinishini eslatadi.

Bu islohotlar bardavom bo‘lishi uchun bilim va kadrlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. “Yashil” texnikumlar ochish, ekologiya menejerlarini tayyorlash, Markaziy Osiyo yashil universiteti faoliyatini kengaytirish ekologik muammolarni faqat texnologiya bilan emas, tafakkur bilan hal etishga qaratilgan yondashuvdir. Laboratoriyalar, ilmiy tadqiqotlar, shaharlarda tabiiy ventilyatsiyani kuchaytirish bo‘yicha izlanishlar ekologiyaga oid qarorlarni ilmiy asosda ishlab chiqishni taqozo etadi.

Joriy yilda ekologiya sohasiga 1 trillion 900 milliard so‘m ajratilishi davlatning bu yo‘nalishga strategik sarmoya kiritayotganini yaqqol ko‘rsatadi. Aslida, bu mablag‘ tabiatga emas, insonning sog‘lom hayoti, barqaror iqtisodiyot va kelajak avlodlarning munosib taqdiriga kiritilgan investitsiya. Ekologik muvozanatni ta‘minlash tabiat bilan hamkorlikka asoslangan kelajak yo‘lidir.

Energetika sohasidagi islohotlar ekologik

muvozanatni ta‘minlash yo‘lidagi eng muhim qadamlardan. So‘nggi besh yilda mamlakatimizda quvvati 6000 megavatt dan ortiq bo‘lgan quyosh, shamol va gidro elektr stansiyalari ishga tushirilgani energetika tizimida tub burilish yasadir. Natijada umumiy elektr energiyasi generatsiyasida “yashil”



energiya ulushi 30 foizga yetdi. Bu raqam faqat texnik ko‘rsatkich emas, balki O‘zbekistonning qaysi yo‘ldan borayotganini ko‘rsatib beradi.

An’anaviy energiya manbalariga qaramlikni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga zarar qilmayotgan qoralar kelgusi avlodlar hayotiga ta‘sir etadi. Shu ma‘noda, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo‘naltirilayotgan sarmoya iqtisodiy manfaat bilan birga ma‘naviy mas‘uliyatni ham ifoda etadi.

Yaqqonda xalqaro hamkorlar bilan birga umumiy quvvati 3500 megavatt bo‘lgan, qiymati 4 milliard 200 million dollarlik yangi “yashil” energetika quvvatlari qurilishiga start berilgan izchil sa‘y-harakatlarning mantiqiy davomidir. Mazkur loyihalar elektr ta‘minotini mustahkamlash bilan birga ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, joriy yilning o‘zida 7 milliard kub metr tabiiy gaz tejalishi va havoga 11 million tonna zararli moddalar chiqishining oldi olinishi kutilmoqda.

Bu ko‘rsatkichlar muhiyatini ochib beradi: “yashil” energetika iqtisodiy samaradorlik bilan ekologik barqarorlikni yagona nuqtada

birlashtirmoqda. Tabiiy gazni tejash resursni iqtisod qilish emas, balki kelajak uchun saqlab qolinayotgan boylikdir. Atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarning kamayishi esa inson salomatligi, shaharlar havosining tozaligi va umumiy hayot sifati uchun bevosita ahamiyatga ega.



Aslida, “yashil” energetikaga o‘tish insonning tabiat bilan munosabatidagi burilishni anglatadi. Inson tabiatni cheklanmas manba sifatida emas, balki himoya qilinishi lozim bo‘lgan umumiy uy sifatida qabul qila boshlamoqda. O‘zbekistonda bu yo‘nalishdagi ishlar ekologik muvozanatni ta‘minlash iqtisodiy taraqqiyotga zid emas, aksincha, uzing eng mustahkam poydevori bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Shu ma‘noda, “yashil” energetika sohasida erishilayotgan natijalar Murojaatnomada belgilangan beshinchi ustuvor yo‘nalishning amaliy ifodasi bo‘lib, yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ekologik, iqtisodiy barqaror modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

### Tomchisida hayot mujassam

Bugun suv tanqisligi insoniyat oldida turgan eng jiddiy va hayotiy muammolardan biriga aylanmoqda. Iqlim o‘zgarishi, aholi sonining o‘shishi, qishloq xo‘jaligi va sanoat ehtiyojlarining ortishi suv resurslariga bosimni keskin kuchaytirdi. Suv endi faqat tabiiy ne‘mat emas, balki milliy xavfsizlik, oziq-ovqat barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotni belgilab



beruvchi strategik resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, keyingi yillarda suvdan oqilona foydalanish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Zero, suv masalasida kechiktirilgan qarorlar ertaga bartaraf etib bo‘lmas oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu ma‘noda, yaqqonda qabul qilingan, qiymati 5,5 milliard dollar bo‘lgan suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, suv inshootlarini modernizatsiya qilish va sug‘orish tizimlarini yaxshilashga qaratilgan uch yillik dastur strategik ahamiyatga ega. Bu dastur suv muammosiga qisqa muddatli emas, balki tizimli va uzoq muddatli yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi.

Dastur doirasida suvni tejaydigan texnologiyalar qamrovi 61 foizga, ya‘ni 2,6 million gektarga yetkazilishi rejalashtirilgan. Bu natija qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish madaniyati tubdan o‘zgarayotganini anglatadi. Natijada yiliga 2,5 milliard kub metr suv tejalishi, 200 ming tonna bug‘ gazi chiqishining oldi olinishi kutilmoqda. Mazkur raqamlar ortida nafaqat iqtisodiy samara, balki ekologik barqarorlik va iqlim o‘zgarishiga qarshi amaliy hissa mujassam.

Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga joriy yilning o‘zida 3 trillion 300 milliard so‘m yo‘naltirilishi davlatning bu sohadagi qat‘iy siyosiy irodasini yaqqol ko‘rsatadi. Chunki sunni tejash xarajatini qisqartirish emas, balki kelajak uchun resurs saqlab qolish, yer umumdorligini asrash va qishloq aholisining turmushi sifatini oshirish demakdir.

Suv yo‘qotishlarning katta qismi eski va samarasiz infratuzilma bilan bog‘liq ekanini inobatga olinib, 1300 kilometr yirik magistral kanallarni betonlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar rejalashtirilgan. Bu maqsadga 3 trillion

so‘m yo‘naltirilib, yiliga qo‘shimcha 500 million kub metr suvni iqtisod qilish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, ochiq drenaj va kollektorlarni yopiq tizimga o‘tkazish bo‘yicha alohida dastur qabul qilinishi suv resurslarini muhofaza qilishda yangi bosqichni boshlab beradi. 2026-yil uchun bu maqsadlarga 100 million dollar ajratilishi, Qashqadaryodagi Paxtaobod kanalini bosimli quvurga o‘tkazish bo‘yicha 134 million dollarlik loyiha amalga oshirilishi suvdan foydalanishda innovatsion yondashuvlar joriy etilayotganini ko‘rsatadi. Bu loyihalar orqali qo‘shimcha 20 ming gektar yer o‘zlashtirilib, yana 25 ming gektar maydon kafolati suv bilan ta‘minlanadi.

Suv siyosati faqat qishloq xo‘jaligi bilan cheklanib qolmay, shahar muhitini yaxshilashga ham qaratilmoqda. Bugun poytaxt va yirik shaharlarda “yashil” hududlarni ko‘paytirish, salqin mikroiklim yaratish suv aylanish tizimlarini qayta tiklash bilan bevosita bog‘liq. Shahar ko‘chalaridagi ariqlarda suv oqishi nafaqat estetik, balki ekologik va sanitar ahamiyatga ham ega. Shu maqsadga 160 million dollarlik dastur doirasida Toshkent shahrida yuzlab kilometr kanal, kollektor va yopiq drenaj tizimlari barpo etiladi va ta‘minlanadi.

Mazkur tajriba boshqa hududlarda ham joriy etilib, viloyat rahbarlari tomonidan qo‘shimcha investitsiya jalb etilishi rejalashtirilmoqda. Ushbu jarayonlar shaharlarni yashil, qulay va ekologik barqaror makonga aylantirishga qaratilgan umummilliy harakat shakllanayotganini anglatadi.

Bu islohotlar inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Suvga e‘tiborsizlik kelajakka e‘tiborsizlikdir. Shu ma‘noda, O‘zbekistondagi suv islohotlari faqat texnik chora-tadbirlar majmui emas, balki ekologik tafakkur, mas‘uliyat va barqaror taraqqiyot falsafasining amaliy ifodasidir.

Ham “yashil” energetika, ham suv resurslaridan oqilona foydalanish sohasidagi yangilanishlar O‘zbekistonning ekologik va iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. So‘nggi yillarda qurilgan quyosh, shamol va gidro elektr stansiyalari nafaqat energiya ta‘minotida mustaqillikni oshirdi, balki atmosferaga chiqadigan zararli moddalarni sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi. Shu bilan birga, suvni tejashga qaratilgan katta dasturlar, magistral kanallar va yopiq drenaj tizimlarini barpo etish, sug‘orish samaradorligini oshirish orqali qishloq xo‘jaligi va shahar muhiti uchun barqaror asos yaratmoqda.

Bunda faqat texnik va iqtisodiy chora-tadbirlar muhim emas. Ular insonning tabiat bilan munosabatini qayta shakllantirish, ekologik madaniyat va mas‘uliyatni oshirishda ham katta ahamiyatga ega. Davlatning ustuvor strategiyasi orqali o‘tkazilayotgan islohotlar umummilliy va mintaqaviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, O‘zbekistonda Markaziy Osiyoda ekologik barqarorlik va “yashil” rivojlanish namunasiga aylantirmoqda.

Bugungi qadamlar ertangi avlod uchun tozalik, salomatlik va barqaror hayot kafolati sifatida xizmat qiladi. Shu ma‘noda, ekologiya va energiya sohasidagi har bir investitsiya, har bir innovatsion loyiha faqat iqtisodiy samara emas, balki ma‘naviy va strategik ahamiyatga ega. Bugun yurtimizda qilinayotgan ishlar aynan shunday barqarorlik, muvozanat va mas‘uliyat prinsiplari asosida qurilmoqda. Zero tabiatni asrash, resurslardan oqilona foydalanish va “yashil” rivojlanishga intilish har bir fuqaroning hayotiy burchiga aylinishi lozim. Haqiqatan, inson va tabiat o‘rtasidagi ushbu uyg‘unlik kelajakka bog‘langan eng muhim qadamdir.

Sardor TOLLIBOYEV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bir etak bolalari bilan maktab, bog‘cha sari oshiqayotgan Lobarxonni mahalla faollari yo‘qlab keldi. “Sen bilan bir ishning maslahatiga kelyapmiz”... Kutilmagan tashrif uning hayot tarzi, ish amallarini butkul o‘zgartirib yuborganiga ham, mana, chorak asr bo‘ldi. Mutaxassisligi oddiy tarbiyachi bo‘lgan ayol shu tariqa jamoa xo‘jaligida paxtachilik brigadiriga aylandi.

— Shuncha yerni eplash uchun bugungidek sharoit va imkoniyatlar yo‘q edi, — deydi “Furqat” fermer xo‘jaligi rahbari Lobarxon Normatova. — Texnika topilsa, ishchi kuchini yetishmasdi, mineral o‘g‘it, suv muammosi, tabiat injiqliklarini aslo so‘ramang. Ba‘zan ekinlarga suvni bir xil taray deb peshonamizga fonarni bog‘lab, tong otguncha dalaning u boshidan bu boshiga yurib chiqardik. Ammo yil yakunida yana bo‘ynimizga qadar qarzga botganmiz. Chunki hosil juda past narxlarda qabul qilinay, yetishtirish xarajatlari belgilangan me‘yorlardan ortiq edi. Yuqoridan rejani bajarishga undashardi, gapga ko‘nmaganlarga chora ko‘rildirdi. Endi hammasi o‘zgardi. Prezidentimiz tashabbusi bilan paxta-g‘allachilik klasterlari tashkil etilgach, fermerlar yelkasiga o‘ftob tegdi-da. Bugungi sharoit va

## KO‘NGLI DALALARI KABI BEPOYON



Muzaffar odamlar



imkoniyatlarni bundan sakkiz-to‘qqiz yilgi holat bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Sarxil urug‘, yonilgi, mineral o‘g‘it dalaning boshiga olib borib berilyapti. Xomashyo xarid narxlari oshdi, o‘zaro raqobat muhiti shakllandi. Yetishtirilgan hosilni qachon, kimga, qanday narxda sotish fermer ixtiyorida. Prezidentimiz qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni oldidan soha vakillari

bilan uchrashuvda fermer, paxta va g‘allachilik klasterlariga yanada ko‘plab imtiyoz va imkoniyatlar berib, qo‘llab-quvvatladi. Dalalarda tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishga imtiyozli kredit ajratish, o‘z mablag‘idan paxta yetishtirgan fermerlarga hosilning 10 foizigacha qismini subsidiyalash tizimi joriy etildi. O‘tgan mavsumda yetishtirilgan paxta hosili uchun 102 million so‘m subsidiya to‘lab berildi. Bu juda katta imkoniyat, rag‘bat.

Rishton tumanida 56 gektar maydonda paxta, g‘alla yetishtirib kelayotgan fermer xo‘jaligi faoliyati ko‘pga ibratli. O‘tgan dehqonchilik yili har qachongidan-da barakali bo‘ldi. Har gektar paxta maydonidan 56 sentnerdan hosil terib olindi. G‘alla hosildorligi 90 sentner, sof daromad salmog‘i 734,5 million so‘mdan oshdi. Bu soha rivoji yo‘lida yaratilgan qulaylik, imtiyozlar mahsulini. Natijada qo‘shimcha tarmoqlar faoliyatini kengaytirish, yangi texnika-texnologiyalar sotib olish imkoniyatlari oshdi. Jahonobod qishlog‘idagi o‘tizdan ortiq kishi ish bilan ta‘minlandi.

— Dehqonchilik katta ilm, izlanish talab etadigan soha, — deya suhbatni davom ettiradi fermer keng dalalarga boqib. — Bu tamoyil keyingi yillarda yanada amal olib. Agrar sohada qo‘shilgan qiymat janjirini yaratish, yetishtirish



xarajatlarni kamaytirish orqali hosildorlik miqdor va sifatini oshirish muhim. 2020-yildan boshlab Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassislari bilan hamkorlikda g‘o‘zaning “Namangan-77” navini tajribadan o‘tkazib, gektardan 45 sentnerdan yuqori hosil olishga erishdik. Bu nav boshqalaridan kasallik, suvsizlik va sho‘rga chidamliligi, vodik iqlim sharoitida 5-7 kun erta pishishi, tolasifat ko‘rsatkichlari yuqoriligi

bilan ajralib turadi. Intensiv bog‘, chorvachilik tashkil qildik. Joriy mavsumda barcha paxta ekin maydonlarida Shinjon tajribasini yo‘lga qo‘yamiz. Malakali mutaxassislar ko‘magida suvni tejash, joriy etilgan yangi texnika va texnologiyalardan maqsadli foydalanish borasida tizimli ishlayapmiz. Bir qarich yerni bekor qo‘ymaymiz. Dala chetlariga qovoq, piyoz, sabzi, kartoshka, pomidor kabi sabzavot ekinlari qadashga odatlanganmiz. Yoz mavsumida ellikdan ortiq ishchi uchun o‘vqat

qaynaydi bu shiyponda. Ba‘zan ishdan toliqib uyga qayganda turmush o‘rtog‘im, ikki qanotim bo‘lgan o‘g‘illarim terigandek bo‘ladi. Uyda qolib, hordiq chiqarishimni xohlashadi-da. O‘zim esa dalaga bir kun bormasam, xastadek holsizlanib qolaman. Uydagilar ham oxiri ko‘nikib qolishdi. Qizlar, nabiralarim kelishsa ham to‘g‘ri dala shiyponiga borishadi...

Fermer hududlarini obodonlashtirish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash ishlarida ham faol. Jahonobod qishlog‘iga toza ichimlik suv tarmoqlari tortish, qishloq oilaviy shifoxonasini ta‘mirlashga ko‘maklashdi. Kam ta‘minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga 20 tonnadand ortiq bug‘doy berdi. Mahallada maktabgacha ta‘lim tashkiloti yo‘q edi. Aholi talablarini inobatga olib, 100 o‘rinli nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti faoliyatini yo‘lga qo‘ydi.

— Mukofot, rag‘bat olinishi ko‘zlab mehnat qilmaganman, — deydi Lobarxon opa bir oz xijolatomuz ohangda. — Hammasi kutilmaganda yuz berdi. Telefon qilib, 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida bir guruh yurtdoshlarimiz qatori “Shuhrat” medali bilan taqdirlanganimni aytganda, quvonchdan ko‘zimga yosh keldi, mehnatlarim qadr topgani, elda e‘zozlanganimdan sevdim.

Zahmatlarga mardona yelka tutgan fermer hayot yo‘lida halollik, poklik tuyg‘ulari mujassam. Yillar davomida ko‘z nurini ko‘chaltarga qadagan, mehri bergan oddiy, samimiy ayolning orzu-maqsdalari dalalari kabi bepoyon, nurli.

Rasuljon KAMOLOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Olimlarning fikricha, kelajakda texnologiyalar takomillashib, xarajatlar qisqarsa, sun'iy yomg'ir usulidan foydalanish ko'lami yanada kengayishi mumkin. Chunki suv resurslarini saqlash va qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish masalasi bugun dunyo miqyosida eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.



# INNOVATSIYA VA YANGI G'OYALAR

## Bunda navqiron avlod vakillarining o'rni bo'lakcha

Dunyoda intellektual salohiyat mahsuli bo'lgan g'oya va innovatsiyalar bejiz qadrlanmaydi. Chunki har qanday sohaga tatbiq etiladigan ilm-fan yangiligi bevosita mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Innovatsiyalar va yangi g'oyalar esa ko'p hollarda navqiron avlod vakillarining qiziqish va izlanishlari samarasida yuzaga keladi. Ular tomonidan ishlab chiqilayotgan, an'anaviy qarashlardan xoli, o'ziga xos yangicha yondashuvlar ilm-fandagi ko'plab muammolarga munosib yechim bo'lmoqda. Hozir ulardan ayrimlari haqida so'z yuritmoqchimiz.

### INSON A'ZOLARINI 3D BIOPRINTERDA CHOP ETISH MUMKIN

O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'simlik moddalarini kimyosiy instituti tadqiqotchisi Olimjon Boymatovning kashfiyoti sohada keskin burilish yasad. Yosh olim 3D bioprinterlar uchun zarur bo'lgan biosiyoh asosini o'zimizning mahalliy o'simliklardan olish usulini aniqladi. Germaniyada o'tkazilgan ilmiy stajirovka natijasida yaratilgan kashfiyotga Intellektual mulk agentligi tomonidan ijobiy xulosa berilgan bo'lib, hozir u patentlash jarayonida o'tmoqda.



beri izlanish olib borayotgan edim, — deydi tadqiqot muallifi. — Yillar davomida

olingan natijalar biz kulganchalik samarali bo'lmagan edi. 2024-yilda Innovation rivojlanish agentligi tomonidan e'lon qilingan stajirovka tanlovida ishtirok etdim va Germaniyaning nufuzli Leybnis universitetida zamonaviy bioprint texnologiyalari hamda gidrogellari olish bo'yicha yangi metodlarni o'rgandim. Natijada inson a'zolarini 3D bioprinterda chop etish imkonini beruvchi biosiyoh bo'yicha ijobiy xulosalar oldim. Yangi gidrogel tarkibi mahalliy o'simliklar polisaxaridlaridan iborat bo'lib, unda inson hujayralari — iMSC yashay oladi va rivojlanadi. Bu esa inson tanasiga begona bo'lmagan, tez moslashuvchan va xavfsiz sun'iy a'zolar hamda to'qimalarni chop etishda ayni muddad.

yetkazib berish hisoblanadi. Bu yondashuv sog'lom to'qimalarga zarar yetkazmasdan saraton kasalliklarini samarali davolash imkonini beradi.

Tadqiqot muallifi yevropalik hamkasblari bilan Yevropa Ittifoqining HORIZON dasturi doirasida e'lon qilingan, moliyalashtirish hajmi 1,42 million yevro bo'lgan 4 yillik xalqaro loyihada ishtirok etib, g'olib bo'lgan. Loyiha doirasida 10 dan ortiq yosh olimni Fransiya, Italiya, Portugaliya va Ruminiya kabi davlatlardagi yetakchi ilmiy tashkilotlarga yuborish va malakasini oshirish rejalashtirilgan. Loyihada turli saraton hujayralariga biologik faol moddalarini liposomal orqali maqsadli yetkazish, teri yara kasalliklarini moddalar va nanozaralar yordamida kompleks davolash kabi tadqiqotlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

### KO'P VALENTLI NOYOB VAKSINA



Hozirgi kunda virusli V gepatiti mamlakatimizda dolzarb malaka oshirish, — deydi Umumiy va noorganik kimyo instituti doktranti, katta ilmiy xodim Abrorbek Ro'zmetov. — Ushbu dastur doirasida iqlim o'zgarish jarayonlari va barqaror taraqqiyotni, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yuzaga keladigan muammo va yechimlarni o'rgandim. Hammasi shundan keyin boshlandi. Hozir Hindistonda 2050-yilgi iqlim prognozlarini bilan qaysi o'simliklar saqlanib qolishi va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muhimligini aniqlash ustida juda katta tadqiqotlar olib borilyapti. O'zbekistonga qaytgach, ilmiy rahbarim bilan muhokamadan keyin doktorlik ishmini arzon, xavfsiz, topilishi oson bo'lgan yangi avlod stimulyatorlarini sintezlashga yo'naltirdik.

paytdagi V gepatitga qarshi vaktsinalari bir valentli bo'lib, yaratilayotgan yangi mRNK vaktsinasi ko'p valentligi bilan farqlanadi. Yosh olim tadqiqot olib borayotgan institutning molekulyar genetik laboratoriyasida gen muhandisligi, biotexnologiya va biologik faol moddalarni zararlangan hujayralarga maqsadli yetkazish kabi eng zamonaviy yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar qilinmoqda. Bundan tashqari, laboratoriyada biologik faol moddalarning saraton hujayralariga qarshi faolligi o'rganilyapti. Tadqiqotchining navbatdagi ilmiy izlanishlari biologik faol moddalarni zararlangan organlarga maqsadli (targetli)

### DRONLAR ORQALI SEPILADI

— 2023-yilda Hindistonda Indian Technical and Economic Cooperation (ITEC) dasturi doirasida malaka oshirish, — deydi Umumiy va noorganik kimyo instituti doktranti, katta ilmiy xodim Abrorbek Ro'zmetov. — Ushbu dastur doirasida iqlim o'zgarish jarayonlari va barqaror taraqqiyotni, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yuzaga keladigan muammo va yechimlarni o'rgandim. Hammasi shundan keyin boshlandi. Hozir Hindistonda 2050-yilgi iqlim prognozlarini bilan qaysi o'simliklar saqlanib qolishi va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muhimligini aniqlash ustida juda katta tadqiqotlar olib borilyapti. O'zbekistonga qaytgach, ilmiy rahbarim bilan muhokamadan keyin doktorlik ishmini arzon, xavfsiz, topilishi oson bo'lgan yangi avlod stimulyatorlarini sintezlashga yo'naltirdik.

Yosh tadqiqotchi tajribalarni nafaqat institut laboratoriyasida, balki rivojlangan davlat olimlari bilan birga xorijning yetakchi ilmiy markazlarida bajardi. 2024-yilning avgust-dekabr oylarida AQSHning Arkanzas universitetida, 2024-yil may-iy oylarida Finlyandiyaning Turku universitetida metall komplekslar kimyosi, ularning tuzilishi va fizik-kimyoviy hamda biologik xossalarni o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bordi.



AA-01 preparati mosh, paxta, bug'doy va ko'katlarda yuqori hosildorlikni ta'minlaydi. Preparat o'simlikka bargiga purkash orqali yetkaziladi, bu esa aniq miqdorini o'rtiqcha isrofgarchiliksiz o'simlik organizmiga yetkazishni ta'minlaydi.

Tadqiqotlar natijasida bugungi kunda fundamental loyiha doirasida 10 ga yaqin istiqbolli birkirmani sintezlashga erishdi. Ular orasidan AA-01 preparatining stimulyatorlik va sintez usuliga ixtiro patentini oldi. Hozir ushbu preparat klinik sinovdan o'tkazilib, toksiklik darajalari to'liq o'rganilgan. Agrolife Chemical kompaniyasi tomonidan litsenzion shartnoma asosida preparatni ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi sektoriga katta miqdorda yetkazib berish boshlangan. U import prototiplaridan 2 karra arzon narxga taklif qilinmoqda.

### TUPROQ SHO'RLANISHIGA QARSHI ZAMONAVIY YONDASHUV

Genetika va o'simliklari eksperimental biologiyasi instituti tadqiqotchisi, yosh olim Ilhom Aytenov tomonidan qishloq xo'jaligidagi dolzarb muammolardan biri — tuproq sho'rlanishiga qarshi innovatsion mikrobiologik yechimlar ishlab chiqilayotgan. Tadqiqotchining ilmiy ishlari sho'rga chidamli bakteriyalarni ajratib olish, o'simliklar bilan o'zaro ta'sir mexanizmlarini o'rganish hamda ular asosida samarali biopreparatlar yaratishga qaratilgan.



moddalar tuproqda namlikni ushlab tushir, tuzlarni bog'lash va o'simlik ildizi atrofida himoya muhitini shakllantirish xususiyatiga ega. Tadqiqotchi tomonidan ilgari surilgan innovatsion yondashuvlardan yana biri bakteriyalar va ular ishlab chiqaradigan ekzopolisaxaridlar (EPS) asosida tuproqda "biologik to'siq" hosil qilish

texnologiyasidir. Ushbu texnologiya orqali tuproqning yuqori qatlamlariga tuz ko'tarilishi cheklanadi, namlikni ushlab tushirish qobiliyati oshadi hamda o'simlik ildizlari atrofida qulay mikroekologik muhit shakllanadi. Natijada o'simliklarning stress omillariga nisbatan chidamliligi ortib, o'sishi va rivojlanishi yaxshilanadi.

Mazkur tadqiqotlar natijasida kelajakda qator amaliy natijalarga erishish, jumladan, sho'rlangan tuproq uchun maxsus mikrobiologik biopreparatlar yaratish, o'simliklarni fitopatogen kasalliklardan himoya qilishning ekologik xavfsiz biologik usullarini ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlarining stress sharoitida hosildorligini barqaror oshirish, kimyoviy vositalardan foydalanishni kamaytirish orqali agroekotizimlar barqarorligini ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va eksportbop mahsulotlar hajmini oshirish nazarda tilyapti.

Tadqiqotchi faqat laboratoriya tadqiqotlari bilan cheklab qolmay, xalqaro hamkorliklarni kengaytirish, ilg'or texnologiyalarni yurtimizga joriy etish va yosh kadrlarni zamonaviy ilm-fan talabari asosida tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Uning ishtirokida tashkil etilayotgan ilmiy seminar, amaliy trening va tajriba almashinuv dasturlari yosh tadqiqotchilarni salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda bunday kompleks ilmiy yondashuvlar nafaqat O'zbekistondagi agrar muammolarni hal etishda, balki global miqdorda dolzarb bo'lgan iqlim o'zgarishi, tuproq degradatsiyasi va oziq-ovqat xavfsizligi kabi muammolarga yechim topish borasida ham muhim. Ayniqsa, mikrobiologik texnologiyalarga asoslangan barqaror dehqonchilik metodlariga kelajak qishloq xo'jaligining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralayapti.

Risolat MADIYeva, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

www.yuz.uz yuz.uznews yuz\_official yuz.uz\_news yuz.uz\_news



### Nuqtayi nazar

# O'ZBEKISTONDA SUN'IY YOMG'IR TEXNOLOGIYASI

mintaqada tajriba namunasiga aylanishi mumkin

So'nggi yillarda kuzatilayotgan qurg'oqchilik, suv manbalari kamayib borayotgani tabiat muvozanatiga ta'sir qilish bilan birga qishloq xo'jaligi barqarorligiga ham jiddiy xavf tug'dirmoqda. Yog'ingarchilikning kamayishi ayrim hududlarda hosildorlikning pasayishi, ba'zan esa ekinlarning nobud bo'lishiga olib kelmoqda. Suv omborlari sathi pasayib borayotgani yoz oylarida ekinlarni sug'orish imkoniyatini cheklab qo'yyapti. Bu holat suv resurslaridan oqilona foydalanish dolzarbligini oshirmoqda.

Joriy yil bahori dehqonlarda umid uyg'otdi. Kech kuzda urug' qadagan yoki bahorgi ekish ishlarini boshlagan mehnatkashlar seryog'in mavsumdan katta natija kutmoqda. Chunki tuproq namligi yetarli bo'lsa, ekinlar barqaror o'sadi, nihollar yaxshi rivojlanadi va hosildorlik ortishi tabiiy. Shu ma'noda, bahorning seryog'in boshlanishi qishloq xo'jaligi uchun muhimdir. Ammo tabiat o'zgaruvchan: ayrim yillarda bahor boshida kuzatilgan yog'ingarchilik mavsum oxiriga kelib, keskin kamayib ketishi ham mumkin. Bunday holat esa ekinlar rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Qadimdan xalqimiz orasida yomg'ir chaqirish bilan bog'liq turli udum va marosimlar bo'lgan. Zamonaviy ilm-fan esa tabiatdagi yog'ingarchilik jarayoniga muayyan darajada ta'sir ko'rsatish imkonini beruvchi texnologiyalarni ishlab chiqdi. Ana shunday usullardan biri sun'iy yomg'ir yog'dirish texnologiyasidir. Mutaxassislar bu jarayonni "bulutlarni urug'lantirish", deb ataydi.

Biroq mutaxassislar bir muhim jihati alohida ta'kidlaydi: sun'iy yomg'irni ochiq osmon sharoitida muntazam hosil qilib bo'lmaydi. Texnologiya faqat atmosferada bulutlar va yetarli namlik mavjud bo'lgan holatdagina samara beradi. Ya'ni tabiiy jarayonga muayyan darajada turki beriladi, xolos.

Bulutlarni urug'lantirish jarayonida odatda kumush yodidi, quruq mosh yoki mayda tuz kristallaridan foydalaniladi. Bunda samolyot, raketa qurilmasi yoki yerda joylashtirilgan maxsus generatorlardan foydalaniladi. Mazkur moddalar atmosferadagi mayda suv zarrachalariga ta'sir ko'rsatib, ularning yirik tomchilarga aylinishiga xizmat qiladi. Natijada yiriklashgan tomchilar yomg'ir yoki qor ko'rinishida yerga tushadi.

Bugun mazkur texnologiya dunyoda keng qo'llanmoqda. Turli ma'lumotlar ko'ra, sun'iy yomg'ir yog'dirish usulidan 50 dan ortiq davlat foydalanadi. Jumladan, Xitoy bu yo'nalishda yirik dasturlarni amalga oshirayotgan mamlakatlardan. Shuningdek, AQSH, Rossiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Hindiston va Avstraliyada ham ushbu usul qishloq xo'jaligi ehtiyojlari, suv zaxirasini oshirish yoki ayrim hududlarda namlikni ko'paytirish maqsadida qo'llanadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, sun'iy yomg'ir tabiatdagi jarayonlarni to'liq boshqarish vositasi emas. Biroq suv tanqisligi



yerda joylashtirilgan generatorlar hamda kimyoviy moddalardan foydalanish katta xarajat talab etadi. Yirik dasturlarni amalga oshirish uchun esa yil davomida millionlab dollar sarflanishi dardkor. Ayni paytda mazkur texnologiyaning samarasi har doim ham kafolatlanmaydi. Sun'iy yomg'irni faqat atmosferada bulutlar va yetarli namlik mavjud bo'lgan sharoitidagina hosil qilish mumkin. Agar havo qatlamida namlik kam yoki bulutlar shakllanmagan bo'lsa, bunday urinishlar kulganchalik aniqlansa, maxsus usullar yordamida yog'ni miqdorini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Havo harorati yuqori bo'lganda yog'ingarchilik ko'rinishida, sovuq sharoitda esa qor shaklida tushadi.

Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri Erkin Abdulahodovning ta'kidlashicha, bu yo'nalishda ilgari ham muayyan tajribalar o'tkazilgan.

Piskomning o'zida 1963-1968-yillarda 60 ta tajriba o'tkazilgan. O'sha vaqtda bu ishlar samolyotlar yordamida bajarilgan. Bugun esa generator orqali tutatish usuli bilan yog'ingarchilik miqdorini haqiqatan 20-30 foiz oshirish mumkinmi degan savolga javob topish maqsadida loyiha ishlab chiqilgan, — deydi mutaxassis. — Kuz oylarida birinchi tajribani o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Masalan, yog'ingarchilikni bor-yo'g'i bir millimetrga ko'paytirish orqali bug'doy hosilini 5 kilogrammacha oshirish mumkin. Bu, ayniqsa, lalmi yer, qishloq xo'jaligi uchun muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislar ta'kidlashicha, loyiha ilmiy monitoring asosida amalga oshiriladi. Atmosfera harorati, namlik darajasi va bulutlarning fizik xususiyatlari doimiy kuzatuv ostida bo'ladi. Tajriba natijalari esa kelgusida bu usulni mamlakatning boshqa hududlarida ham qo'llash imkoniyatini belgilab beradi.

Sun'iy yomg'irning ekologiyaga salbiy ta'siri deyarli kuzatilmaydi. Shuning uchun ham pilot tajriba o'tkazilmoqda. Tajribadan keyin har bir ekologik omil alohida tahlil qilinadi. Masalan, suv tarkibidagi o'zgarishlar o'rganiladi. Piskom tajribasining yana bir azzaligi shundaki, mazkur hududda suv ombori va gidroelektr stansiyasi qurilmoqda, — deydi Erkin Abdulahodov. — Sun'iy yomg'ir orqali suv miqdorini oshirish imkoni paydo bo'lsa, buning natijasida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini ham ko'paytirish mumkin. Bir necha tajribadan keyin barcha natija ilmiy asosda tahlil qilinib, ushbu usulni boshqa hududlarda ham qo'llash masalasi ko'rib chiqiladi.



### Suv tanqisligi sharoitida ilmiy yechim

Bugun iqlim o'zgarishi va suv resurslarining kamayib borayotgani ko'plab davlatlar oldiga jiddiy vazifalarni qo'yimoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekiston ham jarayonning mustasno emas. Aholi sonining ortishi, qishloq xo'jaligi maydonlarining kengayishi va sanoat tarmoqlarining rivojlanishi suvga ehtiyojni tobora oshirmoqda. Shu bois, tabiiy suv manbalariga tayanib qolmay, tabiat imkoniyatlaridan ilmiy asosda samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda ham bu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borilib, yog'ingarchilik miqdorini oshirish imkoniyatlarini o'rganilmoqda. Xususan, tajribalarni Piskent havzasida amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib,

Chatqol havzasi namuna sifatida tahlil qilinmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, yomg'ir yog'dirish jarayonidagi eng murakkab bosqich bulutlarni chuqur o'rganishdir. Buning uchun zamonaviy superkompyuterlardan foydalaniladi. Ular orqali nam havo massaning harakati, atmosfera sharoiti va yog'ingarchilik ehtimoli tahlil qilinadi. Agar nam havo massasi mamlakat hududidan yog'ingarchilik bermay o'tib ketishi mumkinligi aniqlansa, maxsus usullar yordamida yog'ni miqdorini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Havo harorati yuqori bo'lganda yog'ingarchilik ko'rinishida, sovuq sharoitda esa qor shaklida tushadi.

Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri Erkin Abdulahodovning ta'kidlashicha, bu yo'nalishda ilgari ham muayyan tajribalar o'tkazilgan.

Piskomning o'zida 1963-1968-yillarda 60 ta tajriba o'tkazilgan. O'sha vaqtda bu ishlar samolyotlar yordamida bajarilgan. Bugun esa generator orqali tutatish usuli bilan yog'ingarchilik miqdorini haqiqatan 20-30 foiz oshirish mumkinmi degan savolga javob topish maqsadida loyiha ishlab chiqilgan, — deydi mutaxassis. — Kuz oylarida birinchi tajribani o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Masalan, yog'ingarchilikni bor-yo'g'i bir millimetrga ko'paytirish orqali bug'doy hosilini 5 kilogrammacha oshirish mumkin. Bu, ayniqsa, lalmi yer, qishloq xo'jaligi uchun muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislar ta'kidlashicha, loyiha ilmiy monitoring asosida amalga oshiriladi. Atmosfera harorati, namlik darajasi va bulutlarning fizik xususiyatlari doimiy kuzatuv ostida bo'ladi. Tajriba natijalari esa kelgusida bu usulni mamlakatning boshqa hududlarida ham qo'llash imkoniyatini belgilab beradi.

Sun'iy yomg'irning ekologiyaga salbiy ta'siri deyarli kuzatilmaydi. Shuning uchun ham pilot tajriba o'tkazilmoqda. Tajribadan keyin har bir ekologik omil alohida tahlil qilinadi. Masalan, suv tarkibidagi o'zgarishlar o'rganiladi. Piskom tajribasining yana bir azzaligi shundaki, mazkur hududda suv ombori va gidroelektr stansiyasi qurilmoqda, — deydi Erkin Abdulahodov. — Sun'iy yomg'ir orqali suv miqdorini oshirish imkoni paydo bo'lsa, buning natijasida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini ham ko'paytirish mumkin. Bir necha tajribadan keyin barcha natija ilmiy asosda tahlil qilinib, ushbu usulni boshqa hududlarda ham qo'llash masalasi ko'rib chiqiladi.

Umuman olganda, sun'iy yomg'ir yog'dirish texnologiyasi tabiatdagi jarayonlarni o'zgartirish emas, balki ularni ilmiy asosda boshqarishga qaratilgan zamonaviy yondashuvdir. Suv resurslari tobora qadri boylikka aylanayotgan bugungi sharoitda bunday innovatsion yechimlar strategik ahamiyat kasb etadi. Agar tajribalar kutilgan natijani bersa, ushbu texnologiya qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish, suv tanqisligini yumshatish va gidroenergetika imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Eng muhimi, bunday ilmiy izlanishlar mamlakatda tabiat va texnologiya o'rtasidagi muvozanatni saqlagan holda barqaror rivojlanishga intilish kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Agar tadqiqotlar muvaffaqiyatli yakunlansa, O'zbekiston sun'iy yomg'ir texnologiyasini amaliyotga joriy etgan davlatlar qatoriga qo'shilib, Markaziy Osiyoda bu sohada ilmiy va amaliy tajriba namunasiga aylanishi mumkin.

Sardor Shuhrat o'g'li, jurnalist

Ismi aytmay qo'yaqolay. Do'stim unvonlar olmagan, ko'ksiga qator ordeni medallar ham taqilmagan. Qisqacha aytganda, hech qachon hech qanday mukofotdan umidvor bo'lmagan o'z sohasining ustasi, fidoyisi. Yoshi yarim asrlik dovondan oshganiga 5 yil bo'ldi, lekin hamon faol. Nima ish qiladi, deysizmi? U — investor.

## Gaplashadigan gaplar

izlab, otam zir yugurani yaxshi eslayman. Qaysidir uzoq qarindoshimiz o'rtaga tushib, kredit ham undi, siz kafil bo'ldingiz. Lekin uni qaytarish oson kechmadi. Otam qo'shimcha ish topdi, uyda tikuvchilik qiladigan onam ham yordam bo'lar deb non sexiga tungi smenaga ishga kirdi. Oila bisotidagi tilla buyumlar sotildi. O'shanda nimalar bo'layotganini bir oz tushundim. O'qishimni nisbatan to'lovi kamroq o'zimizning biror institutga ko'chiraman, to'lov-shartnoma summamning teng yarmicha bo'larkan degan o'ylarga bordim. Otamga aytgandim, jahli chiqib ketdi. Shu yerda o'qiyman, dedi qat'iy. Shukr, bugun qiyinchiliklarga ortda qoldi. Olgan bilim va ko'nikmalarim orqali yaxshi ish topdim.

Sarvarning o'zi aytadi, ammo xabarim bor: universitet 4-5 talaba qatori uni ham bir semestr Italiyada o'qishga jalb qildi. Bitiruv arafasida bir nechta ish beruvchi nufuzli kompaniya va tashkilot vakillari suhbat o'tkazib, Sarvarga munosib ish,

tez eskiradi, ammo inson zakovati va malakasi cheksiz imkoniyatlarni yaratadi. Yuqori malakali mutaxassislar iqtisodiyot ham, sanoat ham, ilm ham yuksalmaydi. Rivojlangan har bir mamlakat o'z taraqqiyotini, avvalo, ta'lim tizimini isloh qilishdan boshlagan.

Sifati ta'lim olayotgan yosh avlod kelajakda yangi fan sohalarini ochadigan olimlar, iqtisodiyotni boshqaruvchi menejerlar, innovatsion startaplar asoschilari, farovon yashash tizimlarini mustahkamlaydigan mutaxassislardir. Shuning uchun ta'limga investitsiya faqat davlat majburiyati emas. Oilalarning farzandlar ta'limiga e'tibori, jamiyatning intellektual muhitni qo'llab-quvvatlashi, tadbirkorlarning ilm-fanga sarmoya

darajada o'zgartirmoqda. Internet resurslari, onlayn platformalar, interaktiv vositalar, virtual qo'llanmalar, muayyan mavzuni jonlantirish texnologiyalari o'qituvchi yoki o'quvchilarni tafakkurlarini yangi qo'riqlarini ochmoqda. Shu bois, so'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlar zamonaviy tendensiyalarga mos holda rivojlanib bormoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, yuqori malakali, tashabbuskor kadrlarsiz mamlakatning ertasi, kelajagini tasavvur qilib bo'lmaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga tizimli sarmoya yo'naltirgan mamlakatlar barqaror iqtisodiy o'sish va turmush darajasini oshirishga erishadi.

Aholining katta qismini yoshlar tashkil etadigan O'zbekiston uchun yosh avlodning salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy va sifati ta'lim orqali bugungi davr talablariga mos bilim va ko'nikma berish ustuvor maqsaddir. O'z ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro ta'lim makoniga integratsiya etish va hududiy rivojlanishning muhim drayveriga aylantirishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar zamirida ham ushbu maqsad mujassam.

Islohotlar ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, pedagog kadrlarning mehnat sharoiti va ijtimoiy himoyasini tubdan yaxshilashga qaratilgan. Bu chora-tadbirlar ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'qituvchi hamda tarbiyachilar nufuzini yuksaltirish, yosh avlodning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini egallashiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanishi, zamonaviy o'quv dasturlari va pedagogik yondashuvlarni joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar shakllantirilmoqda.

Sohadagi keng qamrovli islohotlar kelajakda O'zbekiston ta'lim tizimining xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlanishini, sifat va raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlaydi. Bu jarayon mamlakatimizda yosh avlodni tarbiyalash va inson kapitali salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

## Indin

Do'stim huzurida hayallab qoldim. Qarasam, gap bilan bo'lib, ishiga xalal beryapman. Ketishga izn so'radim.

— Shoshmay tur, safardan senga o'xshagan 3-4 ishli va bekorchi yaqinlarimga sovg'a olib kelgandim, shuni ola ket, — deya do'stim yonidan kichkina boshqaruv pulitini olib, issiqsima hovlisida turgan mashinaga qaratib tugmasini bosdi. Kelganimda ahmiyat bermoq, oppoq yap-yapq zamonaviy elektromobil bir chekkada qo'to'rib turgan ekan.

— Ie, muborak bo'lsin, oshna, buyursin, zo'ru!

— Ha, sayohatdan kelishimizga bolalar hozirlab qo'yibshdi, — deya men uchun olib kelgan sovg'asini uzatdi do'stim.

Qarasam, chiroyli qadoqlangan qo'isoat tutib turibdi.

— Vaqtda sen va sendek yaqinlarim bizga madad bo'lgansiz, — dedi oilaning bosh investori. — Bu barcha qiyinchiliklar vaqti o'tib ketgani, ortda qolganini eslatib tursin. Ertamiz bugundan, indinimiz esa ertamizdan yorug' bo'lishiga ishora berib, yaxshi vaqtlarda yashayotganimizni aks ettirib tursin.

Endi men quyilib kelayotgan quvonch yoshlarimni do'stimdan yashirishga harakat qila boshladim.

— Kel, yana bir bag'rimga bosay...

**Nodir MAHMUDOV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

# ERTAMIZ BUGUNDAN, INDINIMIZ ERTAMIZDAN YORUG' BO'LADI

## Kelajak egalari tayanchi

Avvaldan aytib qo'yay: bu suhbat bir urinishda yozilmadi. Suhbatdoshim bilan o'n yillar davomida to'y-ma'raka, gap-gashtak, turli davra va o'zaro bordi-keldilar davomida bo'lib o'tgan muloqotimiz, shaxsiy kuzatuvlarim hamda orqavartodan eshitgan gaplarim asnosida shakllangan g'urung bu. Yana ham aniqrog'i, uning hayoti, ko'nglidan o'tganlari mening ko'z oldimda ro'y bergan.

Do'stim bilan o'tgan asming so'nggi choragida ko'chalarni birga chag'itganimiz. Mustaqillikning dastlabki yillarida ota-onamizga har bir yordam bo'lar deb bosh suqmagun ko'chamiz qolmagan: kosibchilik sexidan ish olib, tuni bilan poyabzalni qolipga solib chiqqanmiz. Saharlab “O'tchopar” bozoridan ulgurji tovar xarid qilib, tushgacha chakana savdo bilan shug'ullanganmiz. Ijaraga avtomobil olib, bir muddat kirakashlik qilgan kunlarimiz ham bo'lgan.

Ismi aytmay qo'yaqolay. Do'stim unvonlar olmagan, ko'ksiga qator ordeni medallar ham taqilmagan. Qisqacha aytganda, hech qachon hech qanday mukofotdan umidvor bo'lmagan o'z sohasining ustasi, fidoyisi. Yoshi yarim asrlik dovondan oshganiga 5 yil bo'ldi, lekin hamon faol. Nima ish qiladi, deysizmi? U — investor.

Xorij sayohatidan qaytganini eshitib, dam olish kuni do'stimning ishonchasiga yo'l oldim. Shu paytgacha boshqa davlatlarga borish u yoqda tursin, Samarqandni ham ko'rmagan edi. O'ziga biror qimmatbaho kiyim, hashamatni ravo ko'rmagan. Hozir shahar chekkasidagi ko'chat yetishtiradigan issiqxonada ishlaydi. Topganini ilimga, bilimga, ta'limga investitsiya sifatida yo'naltirish bilan band. Aniqrog'i, to'rt farzandiga zamonaviy ilm va kasb o'rgatish uchun sarmoya kiritadi.

— Bormisam-omonmisan, jigarim, gaplashadigan gaplar ko'payib ketdi-ku, ziyoratlar qabul bo'lsin, — deya ochiq chehra bilan kulib turgan do'stimga quchoq ochildim.

— O'n kun avval bitta davrada birga edik-ku, o'zi ish ko'p payti sen yetmay turgandim, — deya o'zidan nari qilmog'chi bo'ladi do'stim.

Fe'li shunaqa — ichidagini tashiga chiqarishga shoshmaydi, atay sovuqqon ko'rinishga harakat qiladi.

— Baribir odam sog'indi-da. Aslida, yordamlashgani kelgandim. Nima, ketaymi? — Endi haydasaman ketmassan... Kulishdik.

— Ishing ham to'xtab qolmasin, g'urung-lashaylik, sendan so'raydiganlarim bor. Maqola yozayotgandim, sen va sen kabilar haqida. Unga maqsadimni batafsil tushuntirdim.

— Bilganingni qil, — degan javobini eshitib, xursand bo'lib ketdim. “Yo'q”, demadi-ku harholda!

## Kecha

Ikki o'g'il, ikki qizni voyaga yetkazishning o'zi bo'lmagan. Ayniqsa, do'stim oila qurgan mustaqillikning dastlabki yillari — mamlakat iqtisodiyoti endi oyoqqa turishga harakat qilayotgan davr, aksariyat aholining turmushi tang ahvolda, qimmatchilik, pulning barakasi yo'q kezlar. Birin-ketin tug'ilgan farzandlar ko'z ochib-yumguncha ulg'ayib, tashvishi ham kattalashib qoldi. To'ng'ichi Sarvar, so'ng qizi Shahrizoda bir yil farq bilan maktabni bitirdi. Keyingilari Elmurod bilan Mushtariy ham aka va opasiga o'xshab, ilimga chanoq, dars va kitobdan bosh ko'taray demasdi.

Sarvar talaba bo'lgan 2012-yil avgusti hamon ko'z oldimda. Do'stim shodligidan qarshisidan chiqqan odam borki, o'g'lining o'qishga kirganini aytib, yosh boladek quvonchiga sherik qilardi:

— To'ng'ichim o'qishga kirdi, talaba bo'ldi, meni tabrikla, — deb qo'ng'iroq qilganida ovozdin uning holatini tasavvur qildim.

— Mehnatlarning rohatini, farzandlaring kamolini ko'rgan, do'stim. Bilaman, o'zing oliy ma'lumot ololmagansan, armonlaringni zuriyordilarning orqali ro'yog'ga chiqarmoqchisan. Quvonchingga sherikman.

Sentyabrda o'qishlar boshlangani hamon do'stim uyim ostonasida ko'rindi, ovozi hazinroq:

— Kontrakt pulini to'lash uchun ta'lim krediti olmoqchi edim, banklar “limit tugagan”,

deb paysalga solyapti, arang bittasi beradigan bo'ldi, ammo kimdir kafil bo'lishi kerak ekan. Xayolimga birinchi sen kelding.

— Qancha olmoqchisan?

— Bilasan, Sarvar Turin politexnika universitetiga o'qishga kirgan. Davlat kursida 5000 AQSH dollari olishim kerak.

O'sha paytlari xorijiy valyutaning qorabozor va davlat kursi amalda edi. Do'stim aytgan summa milliy pul birligimizda taxminan 12,5 million so'm degani edi! Boz ustiga bankning foizi ham yuqori. Xullas, kafillikni zimmamga oldim. Ancha ovoragarchilikdan keyin bank pulni ta'lim muassasiga o'tkazib berdi. Bu “hamkorligimiz” 4 yil davom etdi. Do'stim qarzni oyma-oy, bir soat ham kechiktirmay sabr bilan uzardi. Bu mushkulot hali holva ekan.

Sarvar 2-kursga o'tganida Shahrizoda, ikki yildan keyin Elmurod ham o'qishga kirdi. Do'stim shu tariqa 2015-yilda 3 farzandiga ta'lim krediti to'ladi. Biror marta farzandlarining ra'yiga qarshi gapirmai, qiyinchilikdan nolimadi. Dardini ichiga yutdi. To'g'ri, bu paytga kelib, katta farzandi o'qishdan bo'sh payti ota-onasining og'irini bir oz bo'lsa-da yengillatish maqsadida ish topdi, harakat qildi — bir necha oy bank kreditini yopishga ozmi-ko'pmi ko'maklashgan bo'ldi. Lekin do'stim bir vaqtda 3 talabani o'qitishni qanday epladi, bu Yaratganga ayon.

2019-yili kenja qizi Mushtariy o'qishga hujjat topshirganida katta o'g'li va qizi ish topib, yaxshi mutaxassis sifatida faoliyat yuritayotgan, uchinchi farzandi esa oxirgi kursga o'qiyotgandi. Qolaversa, davr epkinlari ta'lim olish istagidagi yoshlarga, ayniqsa, qizlarga ancha yengilliklar taqdim eta boshlagan, banklar ham xalqqa yon bosib, kredit berishda ortiqcha muammo qilmay boshlagan davrlar edi.

— Otamga qanchalar qiyin bo'lganini avvaliga his qilmaganman, — deydi Sarvar. — Ta'lim kreditini olish uchun bankda ishlaydigan tanish



lavozim va maosh taklif qilgan. Bugun u yaxshi ish joyi va daromadga ega.

Qizi Shahrizoda esa ikki kursni shu yerda o'qigach, grant yutib, qolgan 2 yillik ta'limni Xitoyda tugatib qaytdi. Ayni paytda qo'shma korxonada ish yurituvchisi. Akasi bilan birga Elmurod va Mushtariyning ta'lim kreditini to'lashda otasiga qanot bo'ldi.

Darvoqe, Elmurod mohir dasturchi, Mushtariy yaxshi tarjimon bo'lib yetishgan. Hozir ishlari, bizneslari bor. To'rt farzand otana qo'lovli bilan jamiyat uchun manfaatli insonlar bo'lib yetishdi.

## Bugun

Jahon iqtisodiyoti yuqori sur'atda rivojlanyapti, raqobat kuchayib, innovatsiyalar hal qiluvchi o'rin egallamoqda. Bunday sharoitda davlat va jamiyat bitta muhim haqiqatni angladi: eng katta va eng daromadli investitsiya inson kapitaliga, ya'ni ta'lim va ilm-fanga sarflangan sarmoyadir. Chunki moddiy resurslar cheklangan, texnologiyalar esa

## Ekoturizm

# SAYROB CHINORI NECHA YOSHDA?

**Surxondaryo viloyatining xushmanzara manzillaridan biri sanalgan Boysun tumani Sayrob qishlog'ida qariyb o'n asrlik tarixga ega ikki tup chinor bor. O'tagan asr boshlarida ko'hna chinor kovagidan bir muddat askarlar qarorgohi, 1920-yilda qishloq kengashi idorasi, 1932-1934-yillarda kutubxona sifatida foydalanilgan. Keyinchalik do'kon, maktab, choyxona, sartaorshoxona vazifasini ham bajargan.**

Hozir chinorlar ichida mo'jazgina muzey tashkil etilgan. Sayrob chinorlari tabiiy yodgorlik sifatida muhofazaga olingan. Uning balandligi 26 metr, tanasining diametri 21 metr.

Bu mahobatli chinorlarni ilk bor olti-yetti yoshimda ko'rganman. Hali xat-savodim bo'lmagani sababli o'sha o'zida yillarda ham chinor kovagiga kirish peshtoqiga qoqilgan bir parcha lavhada nima yozilganini, tabiiyki, anglamaganman, hatto e'tibor ham bermagan bo'lsam kerak. Xotiramda qolgan shuki, yozuv bugungi kunlardagidek chinor daraxtining yonidagi maxsus oyoqli ramkada emas, chinor kovagining shundoq peshtoqida ilingandi. Biz o'shanda oila a'zolarimiz bilan Muzrabot tumani markazidan Boysungga qaytayotgan edik. Yo'l-yo'lakay Sayrobdan to'xtab o'tishi shart bo'lgani bois, ko'p qatori besh-o'n daqiqa

bu ajabovur qishloqdagi chinorlar, ularga yaqin buloqdagi baliqlarni tomosha qilgandik.

Keyinchalik o'n yoshimda ikkinchi bor Sayrobdan qo'nib o'tishga to'g'ri kelgan. O'shanda uch yil muqaddam o'qishni bilmaganim bois, e'tibor qilmaganim o'sha lavhani o'qib, tanasini o'n inson qulochi bilan ham quchib bo'lmaydigan, bag'rida “darichasi” bor bahaybat chinor 950 yoshda ekanini bilganman.

Yana esimda qolgan, o'sha paytda bugun tanasida g'ovak paydo bo'lgan va katta bobochinorga yondosh ikkinchi chinorning hali bag'ri “teshilmagan”, ya'ni kovagi yo'q edi. Biroq bo'lajak g'ovakning izlari paydo bo'lgani ko'rinib turar, bu esa ikkinchi chinor ham allaqachon ichidan chirib, faqat tashqi qalin tana po'stlog'ida qad rostlab turganidan darak berardi.



O'sha paytlarda Sayrob gavjum qishloqlardan biri edi. Negaki xalqaro darajadagi M-39 yo'lining bir qismi shu qishloqdan, chinorlar va buloq o'rtasidan o'tgan edi. Bu tor yo'l hozir ham ichki yo'l

sifatida saqlanib qolgan. Xalqaro avtomobil yo'li esa tubdan rekonstruksiya qilinib, qishloqdan bir oz naridagi tog' bag'ridan o'tkazildi. Shu tariqa yo'l kengayib, zamonaviy qiyofaga kirdi.

daraxtlarning yoshi ikki usulda, tanasining diametri va undagi ichki halqalar soniga qarab hisoblanadi. Sayrobdagi bosh chinorning ichki o'zagi necha asrlar avval yemirilib ketgani bois, bundan kamida 70-80 yil muqaddam mutaxassislar tana diametridan kelib chiqib, unga 950 yosh bergan bo'lishi kerak. Biroq bu kamida 70-80 yil avvalgi xulosa. Oradan shuncha vaqt o'tgan bo'lishiga qaramay, Sayrob chinori haqidagi umumiy ma'lumotlarda uning yoshi hamon 950 yil deb ko'rsatilayapti. Ushbu raqamga chinor yoshi hisoblangan o'z yillardan keyingi vaqtni qo'shib hisoblash zarur. Shunga ko'ra, chinorning yoshi allaqachon o'n asrlik chegaradan o'tib ketgan. Shu bois, mutaxassislar oldida Sayrob chinorlari yoshiga anqlik kiritish vazifasi bor.

Albatta, bu shaxsiy fikrim va taklifim. Nazarimda, mutaxassislar bundan ikki yarim ming yil muqaddam poyida Uzundaradek qadimiy qal'a-istehkom barpo etilgan Sayrob qishlog'i Buyuk ipak yo'li ustidagi eng qadimiy aholi manzillaridan biri ekanidan kelib chiqib, bu yerdagi bobochinorlarning yoshiga ham anqlik kiritib bersalar yomon bo'lmasdi. Zero, bu kelgusida Sayrob chinorlarini dunyoning eng qadimiy nodir daraxtlari sifatida e'tirof etilish va muhofazasi uchun ham muhimdir.

**Davron ORIPOV,**  
faxriy jurnalist

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:  
**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-446.** 30646 nusxada bosildi. **Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.** Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov  
Musahhih: Sherzod Mahmudov  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 22:47